

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

VATANPARVAR

● Gazeta 1992-yilning 2-

bosh

n

avgust, №34 (3044)



BIZ
HAQIMIZDA

@ Vatanparvar

Qurilish

Madaniyat va sport vazirligi

t.me/

t.me/mudofaavazirligi

Madaniyat va sport vazirligi

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-M

RB

GAZETASI

CHIRCHIQDA
AVIASHOU



5

SOBIT BO'LSIN
MUDOM
SHAXDAM
QADAMING



9

SARA
PAHLAVONLAR
BELLASHDI



12-13

Harbiy
muomala
madaniyati –
qudratli
jangchi
majburiyati!

4



BO'LAR EKAN-KU YOXUD BUGUNNING KECHADAN FARQI NIMADA?

Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi. Bayramga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayoni “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” degan bosh g‘oya asosida amalga oshirilishi belgilab olindi. Hech shubhasiz, mustaqillik xalqimizning ming yillar davomida orzu qilib kelgan ozodlik, erk va erkinlik yo‘lidagi kurashlarining mantiqiy natijasi bo‘ldi. Bu yillar mobaynida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston jahon hamjamiyatining haqli ravishda to‘laqonli a‘zosiga aylandi. Ayniqsa, so‘nggi olti-yetti yil avval boshlangan yangilanishlar, xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda o‘tkazilayotgan islohotlar, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dadil qadamlar nafaqat mamlakatimiz aholisida, balki jahon hamjamiyatida ham xursandchilik bilan kutib olinmoqda.

Bugun xalqimiz Yangi O‘zbekiston aslida yangi hayot uchun kurash ekanligini, bu yo‘ldagi sa‘y-harakatlarsiz mamlakatimizda uzoq yillar davomida to‘planib qolgan barcha sohalaridagi muammolarni hal etish aslo mumkin emasligini yaxshi anglab turibdi. Qolaversa, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi har bir kun biz uchun avvallari xayolimizga ham kelmagan imkoniyat va istiqbollarni yaratib bermoqda. Shu nuqtayi nazardan ham, yuqorida nomi qayd etilgan qarorda o‘tgan qisqa, ammo tarixiy jarayonlar, islohotlarga boy tarixiy davr mazmun-mohiyatini ochib berish lozimligi ta‘kidlanadi. Mazkur vazifani “Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor”, degan hayotiy shior mohiyati va ahamiyati ila ochib berilishiga e‘tibor qaratilgani ham bejiz emas. Shunday ekan, bizning vazifamiz ana shu ikki davrni adolat tamoyillariga amal qilgan holda xolis tahlil qilishdan iborat. Tahlillarni “Kecha” (1991–2016-yillar) va “Bugun” (2016-yildan hozirgacha) rukni ostida amalga oshiramiz. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat.

Kecha mamlakatimizda **majburiy mehnat avj olganligi bilan ajralib turardi**. Ma‘lumki, 1930-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining Majburiy mehnat to‘g‘risidagi 29-konvensiyasida, keyinchalik uning 2014-yildagi qo‘shimcha bayonnomasida majburiy mehnat qattiq taqiqlangan, uni amalga oshirish inson huquqlarini poymol qilishdan iborat ekanligi qayd etilgan bo‘lsa-da, biroq uzoq yillar davomida bu masalaga bizda e‘tibor berilmadi. Ayniqsa, oq paxta biz uchun “qora dog” bo‘ldi. Vaziyat shu darajaga yetdiki, 2010-yilda mamlakatdagi va xorijdagi inson huquqlari faollari O‘zbekistonda paxta yetishtirishda majburiy mehnat, ayniqsa bolalar mehnatidan foydalanilgani uchun o‘zbek paxtasiga boykot e‘lon qilish bo‘yicha petitsiyaga imzo chekdilar. Mazkur davrda **ijtimoiy hayotning qaysi jabhasida bo‘lmasin, xodimlarni asosiy faoliyatidan ish paytida ajratib olib, go‘yoki “ijtimoiy foydali mehnat” bahonasida turli vazifalarni bajarishga majbur qilish odatiy hol bo‘lib qoldi**. Bu narsa, ayniqsa ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida hamda sog‘liqni saqlash sohasida avj oldi. Maktab o‘qituvchilari o‘z faoliyatining qariyb chorak qismini qishloq xo‘jaligi, obodonlashtirish, boshqa tashkilotlar funksional vazifalariga kirgan topshiriqlarni bajarishga majbur bo‘ldilar. Natijada ta‘lim sifati keskin pasayib ketdi. O‘qituvchi, murabbiylarning ta‘lim tizimidan boshqa sohalariga o‘tib ketish darajasi o‘sd. Bolalarning ta‘lim olish darajasi tushib ketdi, ularning dunyodagi ilg‘or mamlakatlardagi o‘z tengdoshlaridan bilim saviyasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari salbiy mazmunga ega bo‘ldi.

Bugun esa mamlakat rahbarining sa‘y-harakatlari bilan majburiy mehnatga barham berildi. **Aslida majburiy mehnatni taqiqlash bo‘yicha jiddiy ishlar 2017-yilning boshidan qo‘shilgan edi**. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining faol harakatini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Xalqaro tashkilotlar, ekspertlar O‘zbekistonning bu boradagi sa‘y-harakatlarini doimo qo‘llab-quvvatlab turdi. 2022-yil 10-mart kuni mamlakatimizda majburiy mehnatning bekor qilinganligi, rahbariyatning mazkur masala bo‘yicha qat‘iy munosabatini e‘tiborga olib, “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi O‘zbekiston paxtasiga joriy qilingan boykotni bekor qildi. Shunday qilib, 12 yil davom etgan boykot barham topdi. Bu O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldida erishgan katta va salmoqli yutug‘i edi. Mazkur masalada O‘zbekiston rahbariyatining munosabati qat‘iy ekanligini yangi tahrirdagi Konstitutsiya misolida ham ko‘rish mumkin. Uning 44-moddasiga ko‘ra, majburiy mehnat taqiqlandi.

Kecha biz uchun ko‘plab masalalar, bajarilishi qiyin bo‘lgan vazifalar atayin jamiyatdan yashirildi. Ana shunday “yopiq mavzu”lardan biri – **kambag‘allik masalasi edi**. Inson har doim yaxshi yashashga farovon turmush kechirishga, birovdan kam bo‘lmaslikka harakat qiladi. Ammo O‘zbekiston sharoitida biz kambag‘allik degan so‘zni ishlatishga shoshmadik. Aniqlik aytadigan bo‘lsak, biz o‘zimizni o‘zimiz aldadik, rasmiy ma‘lumotlarda bu haqda axborotlar berishni o‘zimizga ep bilmadik. Kambag‘allik so‘zi o‘rniga “ehtijojmand”, “kam ta‘minlangan” kabi so‘zlarni ishlatishga majbur bo‘ldik. Bu rasmiy doiralarda muayyan darajada xotirjamlik kayfiyatini paydo qilgan bo‘lsa-da, biroq aholining kambag‘allik darajasi, shunga mos ravishda, **ijtimoiy norozilik holati yildan yilga ortib boraverdi**.

Bugun esa O‘zbekiston hukumati katta siyosiy iroda ko‘rsatib, mamlakatimizda kambag‘allik muammosi mavjud ekanligini, u uzoq yillar davomida shakllangan, o‘ta ayanchli holatga aylanib borayotganligini baralla aytishdan cho‘chimadi. Mamlakatimiz tarixida ilk bor mazkur masala 2020-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ko‘tarildi. Shuni ta‘kidlash kerakki, bu masala ana shu paytdan boshlab, O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy siyosatining eng dolzarb masalasiga aylandi. **Ayrimlarda aholiga moddiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy nafaqa tizimini yaxshilash, turli imtiyozlar berish bilan kambag‘allik muammosini hal etsa bo‘ladi, degan fikr bor**. Masalaga bunday yondashuv jamiyatda yillar davomida shakllangan kambag‘allik muammosini aslo hal etmaydi. **Kambag‘allikni kamaytirishning eng ishonchli yo‘li aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat**.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xorij tajribasi jiddiy ravishda o‘rganildi. Uning aniq mexanizmlari ishlab chiqildi, kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash usuli, aholi moddiy ta‘minotining minimal standartlari va me‘yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning 14 nafar eksperti jalb qilindi. Bugungi kunda “2021–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish konsepsiyasi” asosida jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga kamaygan. Yil davomida 200 ming tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. 10 ming korxona faoliyati kengaytirildi. 11 mingtasining quvvati tiklandi. **Olib borilgan ishlar natijasida bugungi kunga kelib 1 million kishi kambag‘allikdan chiqarildi**.

Kecha nihoyatda katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda mamlakat iqtisodiyoti, xususan sanoat sohasida olib borilgan tub o‘zgarishlar, islohotlar O‘zbekistonni jahondagi yirik sanoati rivojlangan mamlakatga aylantirishga imkon bermadi. Ayni paytda mavjud sanoat sohasi mamlakat va millatning tobora ortib borayotgan tabiiy ehtiyojlarini ham qondira olmadi. Ayniqsa, davlat korxonalarining transformatsiyasini hamda xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirish yuz bermadi. Samarasiz korxonalar soni yildan yilga ortib boraverdi. O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning fundamental drayverlarini yaratishda sustkashlikka yo‘l qo‘yildi. Sohaga zamonaviy, yuksak texnika va texnologiyalarning joriy etilishidagi kamchiliklar esa mehnat unumdorligini oshirishga yo‘l qo‘ymadi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ishlab chiqarish sohasining ulushi 2016-yilda 19,5 foizni tashkil etdi xolos. Sanoat ishlab chiqarish sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 2010-yilda arang 4,9 trillion so‘mga yetdi.

Bugun esa Yangi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining eng asosiy yo‘nalishi bo‘lgan sanoat sohasini rivojlantirish asosiy vazifaga aylandi. Mamlakatimiz “**agrar-industrial davlat**”dan “**industrial-agrar davlat**”ga aylandi. Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o‘shish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg‘or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. **Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda yalpi ichki mahsulotning chorak qismini tashkil etuvchi sanoat sohasining ulushi sezilarli bo‘ldi**.

Hozirda jahondagi murakkab geosiyosiy vaziyatga qaramay, O‘zbekiston sanoati Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari orasida jadal o‘smoqda. Masalan, O‘zbekistonda 2022-yilda sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o‘sishi 5,2 foizni tashkil etga bo‘lsa, bu raqam Qozog‘istonda 1,1 foizga, Rossiyada 0,6 foizga, Ozarbayjonda 1,1 foizga pasaygan. Mamlakatimizda sanoat sohasiga qaratilayotgan alohida e‘tibor tufayli yutuqlar salmog‘i tobora ortib bormoqda. Masalan, **2022-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 551,1 trillion so‘mga yetdi. Vaholanki, bu raqam avvallari 63 milliard so‘mdan iborat edi xolos**. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ishlab chiqarish sohasining ulushi 2022-yilda 26,7 foizni tashkil etdi, sohaga jalb etilgan investitsiyalar hajmi mazkur yilda 124,6 trillion so‘mga yetdi.

Kecha “mamlakat xavfsizligini ta‘minlash” bahonasida o‘ta qattiq va mutlaqo mantiqsiz pasport tizimi amal qildi. O‘sha davrda O‘zbekiston hududida 60 dan ortiq tekshirish punkti tashkil etildi. Jumladan, **Xorazmdan Toshkent shahrigacha 17 ta, Farg‘ona vodiysidan poytaxtgacha 8 ta** shunday punkt faoliyat ko‘rsatdi. Bunday punktlarning vazifasi davlat va millat xavfsizligiga “raxna solayotgan shubhali shaxslar”ni

aniqlash, ularning respublika hududida erkin harakatlanishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. **Vaziyat shu darajaga yetdiki, odamlar o‘z yaqinlarining janoza tadbirlariga, to‘y-marosimlariga ham bora olmay qoldilar**. Bahona bitta: tekshiriluvchining yo pasporti yodidan chiqib qolgan yoki bunday shaxslar tekshiruvchilarda shubha uyg‘otgan. Tabiiyki, bunday holat odamlarimizda haqli noroziliklarni keltirib chiqarardi. Ayniqsa, xorijdan kelgan mehmonlarning bunday punktlardan o‘tishidagi jiddiy muammolar vaziyatni yanada keskinlashtirar, ularda O‘zbekistonga bo‘lgan ishonch kayfiyatining so‘nishiga sabab bo‘lardi.

Bugun esa o‘sha tekshiruv punktlari bekor qilindi. Mashhur qiziqchimiz aytgani kabi “**Endi fuqarolarimiz o‘zlarini bemalol O‘zbekistonlikmiz, deya olyaptilar**”. Bugun yo‘llarimizda hech qanday punktlar, postlar, sun‘iy to‘siqlar yo‘q. Odamlarimizning mamlakatimiz bo‘ylab emin-erkin harakatlanishini ko‘rib, inson hayratga tushadi:

– *Bo‘lar ekan-ku, nahotki, bir mamlakatning aholisi bo‘lsak-da, bir-birimizga ishonmasak, hujjatsiz harakat qila olmasak?*

Tekshiruv punktlarining bekor qilinishi oqibatida odamlar orasida muayyan darajada shakllanib borayotgan ishonchsizlik kayfiyati yo‘qoldi, ishilar va kuch tuzilmalari o‘rtasida o‘zaro ishonch va samimiylilik rishtalari paydo bo‘ldi.

Kecha mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotini **korruption** holatlarsiz tasavvur etib bo‘lmas edi. O‘zbekiston jamiyatida “sendan ugina, mendan bugina” qabilida ishlash tizimi avj olgan edi. Ayniqsa, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, qurilish sohalarida korruptsiya holatlari juda ko‘p uchrar, odamlarning norozilik kayfiyati esa tobora ortib bordi.

Korruptsiya jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishiga, qonun ustuvorligi tamoyillarining obro‘sizlanishiga ta‘sir etadi. Ayniqsa, mazkur salbiy holat xalqning davlatga, hukumatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotib, xalqaro hamjamiyatda mazkur mamlakatga bo‘lgan do‘stona munosabatlarga putur yetkazadi.

Ta‘lim tizimida shakllangan korruptsiya holatlari, poraxo‘rlilik, tamagirlik jamiyat uchun zarur bo‘lgan har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar korpusining shakllanishiga imkon bermadi. To‘g‘ri, ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan, o‘z hayotiy prinsiplaridan voz kechmagan minglab vatandoshlarimizni topish mumkin edi. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalarida o‘z vazifalariga vijdonan munosabatda bo‘ldilar. Ommaviy axborot vositalarida, turli anjumanlar, yig‘ilishlarda korruptsiya jamiyatni ichidan turib yemiradigan qurt ekanligini, u bilan jiddiy, tizimli ravishda kurashish davlat va jamiyatning hayot-mamoti ekanligini qayd etishdan charchamadilar.

Bugun esa ana shunday mexanizm, chuqur o‘ylangan ta‘sirchan tizim yaratildi. 2016-yilning oxiridan **mamlakatimizda boshlangan yangilanishlarning aynan korruptsiya balosidan qutqarishdan boshlanganligi juda to‘g‘ri bo‘ldi**. Chunki jamiyatda amalga oshirilishi mo‘ljallangan barcha islohotlar taqdiri o‘sha mash‘um holatni yo‘q qilish bilan bog‘liq edi. Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan Qonunchilik palatasida 2016-yil 24-noyabrda tasdiqlangan, o‘sha yilning 13-dekabrida Senat tomonidan ma‘qullangan va 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzosi bilan tasdiqlangan “**Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida**”gi qonun qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda mazkur masalaning o‘ta jiddiy ma‘noga ega ekanligiga qaratilgan yana bir e‘tibor edi. Ushbu farmonga binoan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Bu esa, shubhasiz, jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yanada

sog'lomlashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning davomiyligi va hayotbaxsh ekanligini ta'minlash yo'lidagi dadil qadam edi. Shuningdek, sohadagi ijobiy o'zgarishlar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash bilan birga xalqaro reytinglar va indekslarda yuqorilashga va yurtimiz nufuzini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Masalan, 2022-yil uchun "Transparency international" tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksi reytingida O'zbekiston 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 7 pog'ona yuqorilab, 140-o'rinni, 2022-yilda esa 14 pog'onaga yuqorilab, 126-o'rinni egalladi hamda indeks bahosida qatorasiga 5 yil davomida barqaror o'sishga erishdi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida mehnat qilayotgan yuz minglab xodimlar maoshlarining oshirilishi, ular mehnatini munosib baholash mexanizmlarining yaratilishi, hech shubhasiz, O'zbekiston jamiyatida uning ildizlarini yemirishda asosiy rol o'ynaydigan korrupsiya holatlarini tag-tomiri bilan yo'q qilishga xizmat qiladi.

Kecha odamlarimiz o'z peshona teri bilan ishlab topgan **pul mablag'ini naqdlashtirish** borasida azob chekdi. Banklar bu vazifani uddalab berolmadi. Do'konlardan mahsulot oladigan bo'lsak, ularning narxini 10 foizga qimmat baholarda olishga majbur bo'ldik. Bozorlardan mahsulot sotib olishdan ham murakkabroq muammo yo'q edi. O'sha paytlari hayotimizda **"obnalshik"** degan **"ishbilarmonlar"**ning yangi toifasi yuzaga keldi. Bunday ish-bilarmonlar pulni naqdlashtirish uchun odamlar ustidan 30, hatto 40 foizgacha sudxo'rlik qilishdi. Biz esa chidashga majbur edik. Bu borada, ayniqsa davlat sektorida ishlaydiganlar, o'qituvchilar, sog'liqni saqlash xodimlari eng ko'p zarar ko'rdilar. **Odigan maoshning tayini, cho'g'i yo'q. Biroq biz farzandlarimiz rizqini qiyib, katta-katta foiz hisobiga o'z mehnatimiz evaziga ishlab topgan pulimizni qandaydir "ishbilarmon"larga berishga majbur bo'ldik.**

Milliy valyuta almashinuv jarayoni ham jiddiy ravishda buzilgan edi. "qora bozor" savdosi avj oldi. Buning natijasida savdo-sotiq, tadbirkorlik va ish-bilarmonlik jarayonlarida sun'iy to'siqlar yuzaga keldi.

Bugun esa o'sha muammo tag-tugi bilan hal bo'ldi. **Barcha qishloq-shaharlarda bank kartalaridagi pullarni naqdlashtirishning 24/7 tizimi ishga tushdi.** Ayni paytda pul-kredit siyosati sohasida ko'lamli islohotlar amalga oshirildi, jumladan **to'lov tizimlari rivojlantirildi, chet el valyutasini sotib olish imkoni yaratildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar faoliyati yo'lga qo'yildi.** Bu esa odamlarda ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi.

Kecha mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar ro'yxati tuzildi, ularning munosib turmushini tashkil etish bo'yicha choralar ko'ridi. Qator-qator dasturlar, konsepsiyalar yaratildi. Biroq bu ishlar o'z samarasini bermadi. **Biz yuqorida qayd etganimiz kabi kambag'allik darajasi pasaymadi, aksincha, uning salmog'i ortib boraverdi. Turarjoyga ega bo'lmaganlar soni yildan yilga ko'payib bordi. Ishsizlik muammosi hal etilmadi. Har yilgi hisobotlarda ish bilan ta'minlanganlar soni 700 mingdan**

bir million kishigacha etib taqdim etilgan bo'lsa-da, ammo real hayotda ularning soni juda kam edi. Mamlakatda xalq manfaatlarini ifoda eta olmaydigan **"davlat – jamiyat – inson"** tamoyiliga amal qilindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslublari va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllangan edi.

Bugun esa inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor va muqaddas maqsadiga aylandi. Jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvida ana shu muhim va ezgu g'oyaga suyanilmoqda. Bunday siyosat **"Davlat – inson uchun"** va **"inson – jamiyat – davlat"** tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Bugun davlat byudjetining asosiy qismi ijtimoiy sohaga ajratilmoqda. 2023-yili davlat byudjetidan 130 trillion so'm, ya'ni jami xarajatlarning salkam 50 foizi ijtimoiy sohaga ajratilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining har bir qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim mexanizmi joriy qilindi. Xususan, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugun 2 milliiondan ortiq oilaga ko'mak berilyapti. Ajratilgan mablag'lar esa 7 baravarga ko'paydi.

Alohida e'tibor kam ta'minlangan oilalardagi bolalarga qaratilmoqda. Bunday bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to'lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o'rtacha 1,5 barobar oshirildi.

Masalaning huquqiy asoslari ham yaratildi. Jumladan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115- va 122-moddalari bilan aholini ijtimoiy himoyalash masalalari huquqiy kuchga aylantirildi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda 3 barobar oshdi.

O'zbekiston davlatining aholi ijtimoiy himoyasini to'laqonli ravishda ta'minlashga doir faoliyatida, so'zsiz, Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1-iyundagi farmoni bilan Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi katta voqea bo'ldi. Bu – juda katta, misli ko'rilmagan yutuq.

Kecha ming yillar davomida **o'zaro qardoshlik munosabatlarini yo'lga qo'yib kelgan, an'anaviy tarzda bordi-keldi aloqalari asosida yashab kelgan qardoshlarimiz – Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston davlatlari bilan bo'lgan chegaralarimiz taqa-taq berk edi.**

Hech qachon yodimdan chiqmaydigan hayotiy misol: 2014-yili Namangan viloyatining Kosonsoy tumani va Qirg'iziston Respublikasi chegarasida bir tomonda mushtipar ona, chegaraning narigi tarafida bir necha yillar avval qo'shni davlatga kelin bo'lib tushgan o'sha onaning qizi bir-birlariga qarab, yum-yum yig'lab turibdilar. Kelin o'z farzandiga to'y qilyapti. Ona esa o'z nabirasining to'yida ishtirok eta olmaydi. Chunki chegaradan o'tish mumkin emas.

Bunday holatni ko'rishning o'zi azob. Afsuski, ana shunday vaziyatni barcha qo'shni davlatlar chegaralarida ham ko'rish mumkin edi. Qanchadan qancha vatandoshlarimizning yurak-bag'ri ezilib ketmadi-ya...

Bugun esa sun'iy ravishda qo'yilgan va qo'shni davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan barcha to'siqlar olib tashlandi. To'g'ri, davlat chegaralari muqaddas hisoblanadi, ularni ko'z qorachig'idek asrash har birimizning burchimiz. Masalan, O'zbekiston bugun Qozog'iston bilan 2 356, Qirg'iziston bilan 1 476, Tojikiston bilan 1 282, Turkmaniston bilan 1 831 kilometr chegaraga ega. Ularning har bir qarichini himoya qilish fuqarolik vazifamizdir. Biroq bugun butun dunyoda kuchli globallashuv ketayotgan bir davrda u yoki bu davlatning faqat o'z qobig'ida yashashi mutlaqo mumkin emas. Ayniqsa, asrlar davomida bir daryodan suv ichib, qiz berib, qiz olgan o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz, o'zbek-turkman oilalarini qanday qilib ajratib tashlash mumkin?!

Shuning uchun ham Markaziy Osiyo davlatlari O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbusni qo'llab-quvvatladilar, **ular kuchli siyosiy iroda namoyish qildilar.** 2017-yili O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi chegaralar ochila boshladi. 2019-yil holatiga kelib, O'zbekiston va Tojikiston chegarasidagi barcha 17 ta nazorat-o'tkazish punktlari faoliyati qayta tiklandi. Xuddi shunday ishlar boshqa qo'shni davlatlar bilan chegaralarda ham amalga oshirildi. Buning natijasida bir tomondan, har ikki davlat fuqarolarining azaliy do'stlik rishtalari yana jonlandi, uzoq yillar bir-birining diydoriga to'ymagan yaqinlar, do'st-birodarlar yana yaqinlashdilar.

Kecha O'zbekistonda kichik Vatani – **o'z uyiga ega bo'lmagan yuz minglab oilalar bor edi.** Odamlarni munosib uy-joy bilan ta'minlash haqida ko'p gaplar bo'lgan bo'lsa-da, biroq mazkur masalani real hayotda amalga oshirish imkoni bo'lmadi. O'sha paytlarda turli oilalardagi hayot tarzidan xabarimiz bor – katalakdek kichik uylarda uch, to'rttalab oilalar o'nlab yosh bolalari bilan istiqomat qilar, munosib turmush uchun ularda na sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilinardi, na normal ijtimoiy muhit bor edi. Hayotning og'irligidan oilaviy kelishmovchiliklar kuchayib, ajralishlar salmog'i esa yildan yilga ortib borardi.

Keling, yaxshisi, birgina misol keltiraylik: 1991–2016-yillarda Toshkent shahrida 77,2 ming xonadonli 1 287 ta ko'p qavatli uy qurildi xolos. Toshkent shahridek azim makonda bu raqam dengizdan tomchi edi. Uy-joyga muhtoj bo'lganlarni har bir toifadagi fuqarolar ichidan topsa bo'lardi. Qanchadan qancha olimlar, ziyolilar, hatto mamlakat va millat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lganlar uy qidirib sarson-sargardon bo'ldilar. Axir buni unutib bo'ladimi?! Yaqin tarix-ku!

Bugun mamlakatimiz katta qurilish maydoniga aylandi. Natijada **so'nggi 6 yilda mamlakatimiz bo'yicha 300 mingta yoki avvalgi yillarga qaraganda 10 barobar ko'p uy-joy qurildi.** Bugungi kunda mamlakatimizning qaysi hududiga bormang, barchasida jadal ravishda uy-joy qurilishi davom etmoqda. Ba'zan odam hayron qoladi: nahotki, O'zbekistonda o'z kichik Vatani – uy-joyiga ega bo'lmaganlar shunchalik ko'p bo'lsa?! Ha, haqiqatan ham shunday edi. Bugun O'zbekistonda har bir oilani uy bilan ta'minlash davlat oldidagi eng katta vazifaga aylandi. Shu ma'noda 2023-yil 13-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

tomonidan imzolangan **"2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi farmonni alohida ta'kidlash lozim. Odamlarni uy-joylar bilan ta'minlashda **"Yangi O'zbekiston"** massivlarini barpo etish alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, "Yangi O'zbekiston" va boshqa davlat dasturlari doirasida qurilgan massivlarning bo'sh yerlarida ko'p qavatli uy-joylar qurish davom ettiriladi va 2023-yilda qurish hajmlari 90 mingtaga yetkaziladi. Birgina joriy yilda **38 ta "Yangi O'zbekiston" massivlarida 31 mingta**, boshqa davlat dasturlaridagi massivlarda 8 mingta, xususi pudrat tashkilotlari hisobidan 51 mingta kvartira qurilishi belgilandi. Kelgusi yetti yilda 15 milliard AQSh dollari yo'naltirish hisobiga qo'shimcha 1 million xonadonli uy-joy qurilishi ta'minlanadi. Bu tom ma'noda buyuk g'alaba bo'ladi.

Kecha milliy madaniyatimiz aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasida ma'lum darajada ish olib borgan bo'lsa-da, biroq bu borada to'laqonli faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmadi. Ko'plab islohotlar o'tkazishga harakat qilingan bo'lsa-da, ularning samaradorlik darajasi past bo'ldi. Madaniyat maskanlarini boshqarishning huquqiy bazasi juda eskirgan, madaniyat va san'at xodimlarini ijtimoiy himoyalash tizimi yaroqsiz holga kelib qolgandi. Uzoq yillar davomida **"Madaniyat to'g'risida"**gi qonun qabul qilinmadi.

Bugun esa madaniyat va san'at tom ma'noda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2017–2023-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasiga oid 4 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 35 tadan ortiq farmon va qaror, hukumatning 100 dan ortiq qaror va farmoyishi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bora 2021-yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasining **"Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"**gi qonuni qabul qilinib, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarining huquqiy maqomi belgilandi, ijodkorlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy baza yaratildi. Ilk marotaba 15-aprel – Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilandi. Milliy va jahon madaniyati namunalari bilan aholiga sifatli madaniy xizmat ko'rsatish maqsadida O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston Teatr arboblari uyushmasi, Xalqaro festivallar direksiyasi, "Bahor" davlat raqs ansambli faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, O'zbek milliy maqom san'ati va Respublika Baxshichilik san'ati markazlari hamda uning huzurida Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy musiqa instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari tashkil etildi. Adolat yuzasidan qayd etish lozimki, uzoq yillar mobaynida O'zbekiston san'atiga bunchalik darajada katta e'tibor berilmagan edi.

Kecha mamlakat ta'lim tizimi muammolar girdobida o'ralashib qolgan edi. 2016-yilda bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish darajasi 27 foizdan oshmas edi. Bunday muassasalarning moddiy-texnik bazasi o'ta nochor bo'lib, ularning binolari deyarli yaroqsiz holga kelib qolgan, bog'chalarni malakali tarbiyachilar bilan ta'minlash holati barchani

tashvishga solar edi. Xususi maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish amrimahol edi. Maktab ta'lim tizimidagi ahvol esa undan ham battar edi. **1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"**gi qonun va **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi zamonaviy talablarga javob bermas, uning konseptual jihatlari allaqachonlar eskirgan bo'lib, samaradorlik darajasi juda past edi.** Ta'limga zamonaviy metodikani olib kirish masalasi esa o'tkir muammo bo'lib qolaverdi. Maktablarda ta'lim sifatining pastligi, xorij tajribasiga bee'tiborlik, majburiy mehnatning avj olganligi, oylik maoshlar hajmining o'ta kamligi tufayli o'qituvchilar, ayniqsa erkak o'qituvchilar ta'lim muassasalarini tark etishga majbur bo'ldilar.

Kash-hunar kollejlari tashkil etish biror bir natija va samara bermadi. Uzoq yillar davomida bunday ta'lim muassasalarida millionlab o'g'il-qizlarimiz ta'lim va kasb-hunar egallagan bo'lsalar-da, uning natijasi jamiyatni qoniqtirmadi. Oliy ta'lim tizimidagi ahvol ham deyarli qoniqsiz edi. **2016-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 9 foizdan oshmadi.** Shu davrda mamlakatimizda birorta ham nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etilmadi. Sirtqi ta'lim tizimi yopildi.

Bugun esa ta'lim tizimi tom ma'noda yangilanmoqda. **2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 72 foizga yetdi.** Maktab ta'limida qisqa vaqt ichida qo'shimcha 700 ming o'quvchi o'rni yaratildi, 200 ga yaqin mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda 400 ta xususi maktab tashkil etildi.

Ta'limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilanishi, maktablarga yuzlab xorijiy muallimlarning taklif etilishi maktab ta'limining yaxshilanishida alohida rol o'ynadi. Ayniqsa, o'qituvchi va murabbiylar mehnatiga munosib haq to'lash bo'yicha aniq chora-tadbirlarning ko'rilishi ushbu soha mutaxassislarining nufuzini yanada oshirdi.

2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish darajasi 38 foizga yoki 4,2 barobarga ortdi. **Oliy ta'lim muassasalarining soni 2016-yildagi 77 tadan bugungi kunda 210 taga oshdi.** Shuningdek, 65 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 4,2 barobar ko'paydi.

Yana shu narsani qayd etish lozimki, qisqa vaqt ichida avvallari biz uchun mutlaqo notanish bo'lgan, bizning tasavvurimizda ham bo'lmagan, mohiyatan yangi tushunchalar, atamalar paydo bo'ldi. Gap **"Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renessans", "Prezident Xalq qabulxonalari", "Ijtimoiy axloq", "Ma'rifatli jamiyat", "Yangi ma'naviy makon", "Davlat – inson uchun"** kabi ko'plab yangi atamalar nomlanishi xususida ham emas. Eng asosiysi, bugun shu kabi tushunchalar mamlakatimiz aholisining real hayotiga to'liq kirib kelganligi, ular xalqimiz hayotida aniq samara va natijalar berayotganligidadir. Aslida **"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun"** degan bosh g'oyaning ro'yobi ham shunda, deb o'ylaymiz.

Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori, professor
(oyina.uz)

HARBIY MUOMALA MADANIYATI — QUDRATLI JANGCHI MAJBURIYATI!

“Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy san’atni rivojlantirishga qo’shgan hissasini chuqur o’rganish muhim ahamiyatga ega”.

Sh.M. MIRZIYOYEV,
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni*



So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni boshchiligidagi mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash borasida muhim tarixiy qadamlar tashlandi. Ayniqsa, mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning **jangovar ruhini oshirish, sohada milliy g‘urur, ona yurtga sadoqat, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish borasidagi sa’y-harakatlar** tom ma’noda yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Xususan, “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida Qurolli Kuchlar tizimida Vatanimizning sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardalari harbiy merosi va boy tajribasini chuqur o‘zlashtirish, milliy o‘zligimizga xos bo‘lgan yangi **harbiy udum va an‘analar, jangovar hayqiriqlar** hamda **harbiy muomala madaniyati** tizimini amalda joriy etish borasida ham samarali natijalarga erishildi.

Bu esa, o‘z navbatida, milliy armiyamiz harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlarida yuksak harbiy intizom qoidalarini mustahkamlash, bir-birlariga bo‘lgan hurmat va e’tiborni yuksaltirish, o‘z kasbini sevrish, vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda **aynan harbiy muomala madaniyatining** rolini yanada oshirishga xizmat qilishi tabiiy. Zotan, jamiyatning har tomonlama yangilanishida muomala madaniyatining o‘rnini teran anglab yashash va xizmat qilish Mudofaa vazirligi har bir xodimining Vatan ravnaqi, yurt tinchligini asrash yo‘lidagi muqaddas burchidir.

Ayni damda Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari o‘rtasida **milliy muomala madaniyatini yuqori pog‘onaga ko‘tarish**, sohada harbiy atamalardan to‘liq va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarurati paydo bo‘lmoqdaki, bu vazifalarni aslo kechiktirib bo‘lmaydi.

Aksariyat mutaxassislar tomonidan O‘zbekiston Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari imijining tarkibiy qismlari sifatida harbiy xizmatchining tashqi ko‘rinishi, uning jangovar ruhi va shijoati, yuksak vatanparvarligi va sadoqati kabi shaxsiy sifatlar belgilangan. Ushbu xususiyatlarning namoyon bo‘lishida albatta barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning jamiyatda o‘zini tutishi, o‘zaro muomala madaniyati alohida ahamiyatga ega. Umuman, insonning fikrlash darajasiga ta’sir ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan aytilish mumkinki, muomala madaniyatiga rioya etish harbiy xizmatchilarning kundalik kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois ham, bugungi kunda vazirlik tizimida harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, komandirlarning (**boshliqlarning**) bo‘ysunuvchilariga, bo‘ysunuvchilarning o‘z komandiriga (**boshlig‘iga**) murojaat etish, salomlashish tartibi eksperiment tariqasida sinovdan o‘tkazilmoqda.

Murojaat qilish tartibi bo‘yicha taklif etilayotgan loyihada eski mustabid tuzumidan bizga “meros” bo‘lib kelayotgan, milliy o‘zligimiz va boy tariximizga xos bo‘lmagan **“O‘rtoq”** va **“Товарищ”** atamaları o‘rniga **“Mening”** atamasini joriy etilishi, o‘zaro murojaatlarda **“Mening safdoshim”**, **“Askar”**, **“Qo‘mondonim”** va **“Komandirim”** kabi iboralardan foydalanish taklif etilayotgani, birinchi navbatda harbiy xizmatchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksak kamol topishiga; ikkinchidan, ularning ongida egalik, komandir va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-biriga yaqinlik, o‘z komandiri va boshlig‘iga mustahkam ishonch hissiyotlarining kuchayishiga; uchinchidan, harbiy jamoalarda barqaror ma’naviy-axloqiy muhitni yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

“Товарищ” so‘zining etimologiyasiga nazar tashlasak, bu atamaning o‘zagi tovar – mol-mulk bo‘lib (**“товаруш” – “товар+еш”, ya’ni tovar-**

mol vositasida birga ish qiladigan sherik, o‘rtoq), bu termin o‘zbek tilida o‘rtoq, oshna, jo‘ra, og‘ayni, sherik kabi ma’nolarga ham ega.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘rtoq so‘ziga **yoshi teng yoki yaqin bo‘lib, o‘zaro yaxshi aloqada bo‘lgan tengdoshlar** sifatida ta’rif beriladi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘rtoq so‘zining lug‘aviy ko‘lamdorligi **harbiy xizmatchilar, boshliq va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi muloqotlarda o‘z ma’nosini to‘la oqlay olamayotgani** ayon bo‘ladi.

Mazkur atamalarining joriy etilishi orqali harbiy xizmatchilar, shaxsiy tarkib ongida **“Meniki”** degan tuyg‘uni (**mening komandirim, mening safdoshim va h.k.**) shakllanishi, eng asosiysi, inson qadri va unga bo‘lgan e’tiborning ortishiga erishiladi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlar armiyalarini qiyosiy o‘rganish natijalari ham harbiycho murojaat shakllarida turli ijobiy islohotlar olib borilayotgani, harbiy xizmatchilarning o‘zaro ahilligini oshirish, ularning ongida o‘zaro do‘stlik rishtalarini kuchayishiga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Ya’nikim, inson tabiati o‘ziga yaqin bo‘lgan narsalarni ko‘proq himoya qilishini hisobga olsak, harbiy muomala madaniyatining takomillashuvi ham jarayonlar rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Jahongashta bobolarimiz qo‘shin qarshisida bor vujudi bilan jangovar nutq so‘zlar ekan, ular bot-bot yurti eson-omon saqlash, ulus va qavm-qarindoshlarni yov jabridan muhofaza etish, yurt sha’nini o‘z qadr-qimmatidan ustun bilgan har qanday jangchi ikki dunyoda ham mukarram bo‘lishini, buning uchun esa doimo yonma-yon va yelkama-yelka tura oluvchi birodarlik aloqalarining muhimligini takror-takror uqtirishgani manbalardan ma’lum.

Muxtasar aytganda, Qurolli Kuchlarimiz tizimida milliy madaniyatimiz va tariximizning qadimiy an‘analaridan oqilona foydalana olsak, har jabhada tilimizning boy imkoniyatlarini namoyon etsak, eng muhimi, bu borada jamoatchilik fikrini shakllantira olsak, bu, shubhasiz, o‘zligimiz tomonga dadil odimlarimiz bo‘ladi.

Polkovnik Hasan XALILOV,
**Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy
va mafkuraviy ishlar bosh
boshqarmasi boshlig‘i**

CHIRCHIQDA AVIASHOU

Kundalik hayotimizda Harbiy havo kuchlari faoliyati mamlakatning oddiy fuqarolari ko'ziga tanish emas. Ular odamlarni tashqi tahdidlardan himoyalash bilan bir qatorda turli qutqaruv operatsiyalari va mamlakat ichidagi boshqa amaliyotlarda ishtirok etadi. Shu ma'noda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi Havo floti kuni sifatida keng nishonlanadi. Sana munosabati bilan Toshkent harbiy okrugiga qarashli "Chirchiq" umumqo'shin dala-o'quv poligoni hududidagi markaziy maydonda bayram tadbiri tashkil etildi.

Bayramda kasb bayramini nishonlagan Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi harbiy xizmatchilari, ularning oila a'zolari, turli yoshdagi aviatsiya ixlosmandlari jam bo'ldi.

Aviaparvozlarda jangovar va harbiy-transport samolyotlari hamda vertolyotlar uchuvchilari o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Xususan, harbiy uchoqlar tomonidan samoda O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i tasviri hosil qilindi.

Aviashouda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni general-mayor Ahmad Burhonov ishtirok etib, uchuvchilarning manyovrlarini kuzatib bordi. Ayniqsa, qo'mondon tomonidan namoyish etilgan murakkab va qiziqarli manyovrlarga boy aviachiqish yig'ilganlarda ulkan taassurot qoldirdi. Desantchilarning jangovar vertolyotdan parashyut bilan ko'rgazmali sakrashlari ham shular jumlasidan.

Aytish joiz, bugungi kunda mamlakatimiz Harbiy havo kuchlari zamonaviy uchish apparatlariga ega. Jumladan, zamonaviy qurol-aslahalar,

navigatsiya vositalari, radioelektron qurilmalar, jangovar samolyotlar, vertolyotlar bilan yetarli darajada ta'minlangan.

Tantanali tadbirida so'z olganlar bu haqda batafsil so'z yuritib, harbiy uchuvchilarimizning yuksak mehnati va fidoyiliklari, "Ustoz-shogird" an'alarining beqiyos o'rini e'tirof etar ekan, mamlakatimizning tinchligi va farovonligi yo'lidagi sharaflari faoliyatlariga omad tiladi.



Sherzod EGAMBERDIYEV,
«Vatanparvar»



JANUBDA FIDO BO'LGAN JON

Har gal tug'ilib o'sgan aziz makonim — Bulung'urga borganda ulovdan tushib, o'ng tarafga boshlaydigan yo'lga qarayman. Shu yerdan qahramon Ma'rufjon Rajabov nomidagi ko'cha boshlanadi.

Ma'rufjon kim o'zi? Ko'cha boshida qad rostlab turgan chiroyli yodgorlik majmuasida harbiy libosdagi yigitning timsoliga ko'zingiz tushib, beixtiyor uning harbiy harakatlar ishtirokchisi ekani va ... halok bo'lgani xayolingizni chulg'ab oladi. M. Rajabov 2000-yilda janubiy sarhadlarimizga suqilib kirgan jangarilar guruhidan Vatan tuprog'ini tozalash uchun olib borilgan janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan. O'sha paytda otasi Ahmad aka, tug'ishganlari, qarindoshlari, uni tanigan va bilganlarning

bog'lashga qaror qilmoqchi bo'lib, otasidan izn so'radi, duosini oldi. Oradan 3 yildan ko'proq o'tgan vaqt mobaynida u qismning eng tajribali jangchilaridan biri sifatida nom qozondi. O'tkazilgan taktik-amaliy mashq borki, u hamisha yuqori baho olardi.

Mamlakatimiz hududiy yaxlittigini saqlash, tinchlik va barqarorlikni himoya qilishdek chaqiriqqa birinchilardan bo'lib katta serjant Ma'rufjon Rajabov xizmat qilayotgan harbiy qism jalb etilgan. Noqulay tog' sharoitida jang qilish oson emas. Buning uchun kuchli iroda, matonat va jismoniy bardamlik, harbiy mahorat zarur.

Erta tongda qism komandiri maydonda saf tortgan harbiylarga qarata shunday dedi:

— Askar va serjantlar, zobitlar! Bugundan boshlab siz va biz Vatan himoyasiga safarbar etilmoqdamiz. Bir necha kun avval Sariosiyoqa suqilib kirgan dushman guruhini zararsizlantirish vazifasi bizga ham yuklandi...

Bir necha kunlik qisqa tayyorgarlikdan so'ng Ma'rufjon xizmat qilayotgan guruh

vertolyotda baland tog' orasiga tashlandi. Tezlikda joylashib, qurol-yarog'larni xaritada belgilangan nishonlarga to'g'rilashga endigina ulgurgan Vatan himoyachilarini og'ir sinov qarshi oldi: dushman daraning narigi tarafidan avtomat va granatamyotlardan o't ocha boshladi. Bunday sharoitda qanday harakat qilish lozimligini o'quv mashqlarida sinovdan o'tkazgan harbiylarimiz darhol qarshi o't ochib, dushmani chekinishga majbur qilishdi.

Ma'rufjon Rajabov bir necha bor guruh bilan birgalikda tog'larni kezib, dushman harakati va joylashuvi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirdi. Navbatdagi ana shunday yurishlarning birida guruh dushman kuzatuvchisining nigohiga tushib qoldi. Dushman nishonga olgan o'g'lonlardan biri Ma'rufjon edi...

Katta serjant Ma'rufjon Rajabovning Vatanimizning janubiy sarhadlarini qo'riqlashdagi mardligi "Jasorat" medaliga loyiq, deb topilgan.

Gulihumo MAJIDOVA
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

"HAVAS BILAN QARAYMIZ"

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlab, "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Nuroniylar va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi.

Tadbirida "Nuroniylar" jamg'armasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi raisi Tursinboy Abdijabborov, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi raisi, Jo'qorg'i Kenges deputati Tojiboy Romanov, Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti prorektori Quanishboy Yusupov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi bosh maslahatchisi Zebo Bozorboyeva, Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug kengashi raisi iste'fodagi podpolkovnik Abdurasuli Yusupov, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy bo'linmasi xodimi Gumisay Paluanova, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni harbiy xizmatchilari ishtirok etdi.

Turli sohalarida faoliyat yuritgan, katta hayotiy tajribaga ega faxriylarni bir davraga jamlagan uchrashuv qiziqarli va mazmunli o'tdi. Yoshi ulug'

mehmonlar uzoq yillik umr yo'li haqida o'rtoqlashar ekan, bugungi tinch va farahbaxsh kunlarning zamirida mustaqillik deb atalmish buyuk ne'matning o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidladi. Shuningdek, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, yoshlar uchun yaratib berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar haqida so'z bordi.

— Bugunning yoshlariga havas bilan qaraymiz! — deydi iste'fodagi podpolkovnik Abdurasuli Yusupov. — Sizlar uchun

barcha eshiklar ochiq. Bir nechta tilda so'zlaysiz. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan bemalol foydalanasiz. Bizning davrlarda oliy ta'lim muassasasiga kirib o'qish qiyin edi. O'z Vatanimizda emas, balki uzoq yurtlarda harbiy xizmatni o'tashga majbur edik. Mustaqillik bizga katta imkoniyatlarni hadya etdi. Uni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz!

Tadbir so'ngida Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi musiqa teatri ijodkorlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yillik bayramiga bag'ishlab namoyish etilgan konsert dasturi dillarga orom bag'ishladi.

Shohista ABDURAHMONOVA
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati





NISHONGA NOMZODLAR SARALANDI

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishonini beruvchi intensiv sinovlarning saralash bosqichi bo'lib o'tdi.

Kursantlarning jismoniy tayyorgarligi va jangovar shayligini yanada oshirish, standart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, tabiiy notekis joylardan marsh yurish, yugurish, qurollardan o'q otish hamda pichoq uloqtirish malakalarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan sinovlar qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda o'tdi.

– Ushbu bellashuv 3 bosqichda olib borildi, – deydi bilim yurtining Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedras boshlig'i

podpolkovnik Aziz Haydarov. – Dastlabki bosqichda sinov ishtirokchilari kompleks kuch mashqlarini bajardilar. Keyingi bosqichda 30 kilometr masofaga piyoda yurish, marsh yugurish mashqlari amalga oshirildi. So'nggi bosqichda kursantlar yagona to'siqlar yo'lagidan oshib o'tdi, o'qotar qurollardan (*avtomat yoki to'pponchadan*) amaliy otib, pichoq uloqtirdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, bilim yurtidan 5 nafar kursant saralanib, ular Mudofaa vazirligi qo'shinlari miqyosida o'tkaziladigan "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishonini beruvchi intensiv sinovlarda ishtirok etadilar. Bu bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan harbiy xizmatchilar "Dovyurak jangchi" nishoni va pul mukofoti bilan taqdirlanadi.



BILIM YURTIDA SPORT BAYRAMI

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida "Otam, onam va men sportchi oilamiz" shiori ostida musobaqa o'tkazildi.



Bilim yurtida harbiy xizmatchilar va oila a'zolarini sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, sport orqali Vatan himoyachilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, farzandlarini sport turlariga qiziqitirish hamda oilada sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan bellashuvda 13 ta jamoa o'zaro kuch sinashdi. Dastlab "Quvnoq estafeta" shartida ota start chizig'idan 2 ta 16 kilogrammli toshni 20 metr masofaga olib yugurdi. Tosh finish chizig'idan o'tkazib qo'yilganidan so'ng ona gimnastika halqasini aylantirib, 20 metr masofani bosib o'tib, farzandiga navbat berdi. Oilaning uchinchi vakili to'pni olib, 20 metr masofaga to'siqlar osha yugurdi. Oxirgi to'rtinchi ishtirokchi esa to'pni zigzak usulida oyog'i bilan qo'yilgan to'sinlar orasidan olib o'tib, finish marrasini kesib o'tdi. Bellashuvning "Tosh ko'tarish", "Gimnastika halqasini aylantirish", "Basketbol halqasiga to'p tushirish", "Minifutbol darvozasiga to'p tepish" shartlari ham murosasiz bahslar, qizg'in

vaziyatlar va hayajonga boy tarzda o'tdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, bilim yurtining o'quv jarayonini ta'minlash bazasi katta yo'riqchisi III darajali serjant Javlon Sodiqov oilasi 1-o'rinni egalladi. Kichik serjant Vahobiddin Rasulov oilasi ikkinchi va Taktika kafedras katta yo'riqchisi I darajali serjant Yaminjon Xolmirzayev oilasi uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, ishtirokchilar orasidan eng sara harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari turli nominatsiyalar bo'yicha rag'batlantirildi. Bilim yurti boshlig'i polkovnik Shavkat Mamajonov g'olib va sovrindorlarga diplom va esdalik sovg'alarni topshirib, ularni sog'lom turmush tarzi targ'ibotida namuna bo'layotgani bilan samimiy qutladi.



BIRDAMLIKDAGI HARAKATLAR NATIJASI

Markaziy harbiy okrugning “Sazagan” poligonida kuch tuzilmalarining havo hujumidan mudofaa bo‘linmalari mutaxassislari ishtirokida o‘quv yig‘ini o‘tkazildi.



Mashg‘ulotlar davomida ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda texnikalarda pozitsiya egallash, hujum bo‘lganda uni bartaraf etib, nishonlarni yo‘q qilishning mutlaqo yangicha usullari qo‘llanildi. Berilgan barcha topshiriqlar birdamlikdagi harakatlar natijasi o‘laroq, o‘z vaqtida ado etildi.

Soha vakillarining har bir harakati o‘z kasbining haqiqiy

ustasi ekanini ko‘rsatdi. Dastlab sohaga oid so‘nggi ma‘lumotlar shaxsiy tarkibga yetkazildi. Topshiriqlarni bajarishning uslublari tahlil etildi. Shundan so‘ng amaliy mashg‘ulotlarga kirishgan shaxsiy tarkib yuklatilgan topshiriqqa asosan harakat olib bordi. Xususan, zenit qurollarini jangovar shay holatga keltirish va nishonni mo‘ljalga olib, zudlik bilan uni

yakson etishda mutaxassislar bilimi amaliy tarzda sinovdan o‘tkazildi.

Dala-o‘quv maydonida olib borilgan o‘quvlarda ishtirokchilar nishongacha bo‘lgan masofa, shamol tezligi, namlik hisobi va zenit qurollarini qo‘llash texnikasi kabi muhim masalalarni amaliy tarzda ko‘rib chiqdi. Aytish kerakki, yerda turuvchi va harakatlanuvchi

nishonlarini bexato urib, yo‘q qilayotgan bu azamatlar yillar davomida soha sirlarini o‘tgan vaqt davomida chuqur o‘rgandi. Bu ularning mashg‘ulotlar davomida qo‘lga kiritgan natijalarida ham aks etdi. Muhimi, bo‘linmalarining hamkorlikdagi harakatlari natijasida murakkab sharoitlarda ham vazifalar a‘lo darajada bajarilib, yangi bilimlar egallandi. Tajriba ortirildi.



Katta leytenant Otabek NORBOYEV,
Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig‘i



SOBIT BO'LSIN MUDOM SHAXDAM QADAMING



Zamonaviy jamiyatda milliy g'oyasiz na siyosatda, na iqtisodiyotda, na islohotlarni amalga oshirishda jiddiy natijaga erishish mumkin. Bundan tashqari, madaniyat bilan tanishtirish orqali ma'naviyatni tarbiyalash nafaqat harbiy mutaxassis, balki ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.



Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonida auditoriyadan tashqari ishlarning turli shakllaridan samarali foydalanish doimo o'z samarasini berib kelgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, atoqli sarkarda va adolat peshvosi Amir Temur bobomizning o'ta dadil harakatlari, mardligi, shijoati, matonati bilan butun olamga o'zbek o'g'loni kim va qanday bo'lishini namoyon etganligi alohida e'tiborga molikdir. Ulug' ajdodlarimizga munosib vorislik hamda Vatanimizning ishonchli himoyachisi, pahlavoni, ona yurtning qalqoni bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir harbiy, xususan, kursantlarni o'qitishda ijodiy yondashuvlardan foydalanish ularning e'tiborini ko'proq jalb qilish imkonini beradi.

Masalan, biz kursant so'ziga alohida urg'u berar ekanmiz, mantiqiy fikrlash orqali bu so'zning ma'nosi, qanday fazilatlarga egaligi va boshqa nozik ma'no qirralarini ochishga harakat qilamiz.

KURSANT – Ko'rkam, Ulug'sifat, Rostgo'y, Sobit, Aqlli, Nodir, Topqir.

Ko'rkamlik bo'lsin doim sening g'ururing,
Ulug'sifat bo'lsin hamisha qadding.
Rostgo'ylik bir umr bo'lsin senga do'st,
Sobit bo'lsin mudom shaxdam qadaming.
Aqli dono, komillik bo'lsin shioring,
Nodir, noyob bo'lsin har aytgan so'zing,
Topqirlik sen bilan bo'lsin abadiy.

Shunday ekan, bugungi kunda har bir kursant, o'qishga qabul qilingan kundan boshlab quyidagi shiorga amal qilishi maqsadga muvofiqdir:

– O'qishga kirib, saboq olishni maqsad qildim!
– Barcha zaruriy fanlarni o'zlashtirishga qaror qildim!

– Yetuk ofitser bo'lish uchun bor g'ayratimni sarflayman!

– Yuksak cho'qqilarni zabt etishga ahd qildim!
Ajdodlarimiz garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo'lishsa-da, kuch-qudrat zo'rlik va zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik

va hamkorlikda ekanini chuqur anglaganlar. Ularning davlatni oqilona boshqarishlari, o'ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to'g'ri yo'l, tadbir topa olish qobiliyatlari, noyob aql-zakovatlari har qanday odamni hayratga solishi tabiiy. Bundan unumli foydalangan holda kursantlar uchun muqaddas tushunchalarning ma'no ko'lamdorligini yanada oshirish, ular bilan ijodiy hamkorlik qilish masalalariga ko'proq ehtiyoj seziladi.

Xususan, ularda yuksak vatanparvarlik ruhini yanada rivojlantirish maqsadida **ASKAR** so'zini quyidagicha talqin qilish mumkin:

Ayovsiz, Sergak, Kuchli, Adolatli, Rostgo'y.

Bu kabi qarashlarni o'z yurtini sevadigan har bir inson o'zi uchun shior sifatida qabul qilib, uni keng ma'noda quyidagicha talqin qilishi mumkin:

– **ayovsiz** tarzda dushmanga qarshilik qilish, matonatli, qat'iyatli, eng muhimi, bergan qasamyodiga sodiq o'g'lon bo'lish;

– **sergak**, hushyor turib, har qanday tahdidlarga nisbatan hech qachon ziyraklikni yo'qotmaslik;

– **kuchli**, mard, jasur bo'lib, Vatan ravnaqi yo'lida o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadiga erishish hamda yengilmas pahlavon kabi har qanday yovuzlikni yanchish;

– **adolatli**, bilimli, dono, komillik bilan ona yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish;

– **rostgo'y** sifatida doimo o'z pozitsiyasiga ega bo'lish...

Yoki bu so'z ma'nosiga quyidagicha yondashish mumkin:

Ayovsiz bo'lib dushmanga, sodiq

qolsang qasamyodga,

Sergak, hushyor, ziyrak tursang har

qandayin tahdidga,

Kuchli, jasur, mard bo'lsang, tajovuzni yengishda,

Adolatli qilsang toj, gar chiqargan hukmingda,

Raqib pahlavon debon, yo'qolgay yov shu onda.

Demak, vatanparvar – bu oddiy askar yoki ofitser, ishchi yoki xizmatchi, dehqon yoki tadbirkor, xodim yoki rahbar bo'lishidan qat'i nazar "yurtimning sodiq farzandimani!" deya sadoqat bilan xizmat qiladigan insondir.

Shu o'rinda harbiy atamalarni ofitser va kursantlar ongiga chuqur singdirishda turli ijodiy yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

OFITSER – Oliyjanob, Fidoyi, Insonparvar, Tafakkuri keng, Samimiy, E'zozli, Rostgo'y.

Oliyjanob bo'lmoq ajdodlarga xosdir,

Fidoyi xizmat qilish yurtimga mosdir,

Insonparvar bo'lish otamerosdir,

Tafakkuri keng bo'lmoq yangi imkonidir,

Samimiy bo'lmoqlik mardlarga xosdir.

E'zozlash va ardoqlash o'lmas shiordir,

Rostgo'y bo'lib yashash qalb ovozidir.

HARBIY – Hurmatli, Adolatli, Raqobatbardosh, Bilimli, Ibratli, Yo'lbo'shchi.

Hurmatga loyiq bo'lish mening sharamim,

Adolatli bo'lsin har bir qarorim.

Raqobatbardoshlik bu mening kuchim,

Bilim olmoqdadir mening bor fikrim.

Ibrat bo'la olsin yuksak xizmatim,

Yo'lbo'shchi misoli sergak bo'lay men.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, professional harbiy kadrlarni tayyorlash davlatimiz, milliy armiyamiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanib, bu yo'lida ta'lim berishning o'ziga xos va mos usullaridan foydalanish o'z samarasini berishi shubhasiz.

T. BURHONOV,

Qurolli Kuchlar akademiyasi Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti

FOND KO'MAGIDA

Salomatlik – odamning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari yig'indisi. Dono xalqimiz bejiz "Sog'lom tanda sog' aql", deb naql qilmagan. Zero har bir harbiy xizmatchi va oilasining salomatligini ta'minlash Mudofaa vazirligining ustuvor maqsadlaridan biridir.

Shu munosabat bilan "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondining tibbiy-ijtimoiy markazi mutaxassislari ishtirokida Andijon viloyati Xonobod shahridagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolari

uchun bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi. Unda pediatr, terapevt, ginekolog, oftalmolog, lor, nevrolog, endokrinolog kabi shifokorlar ko'rigi, EKG va ultratovush tekshiruvlari o'tkazildi.

Tibbiy ko'rik davomida ayollar ishtirokida "Xotin-qizlar reproduktiv



salomatligi – sog'lom kelajak asosi" mavzusida suhbat olib borildi. Bu kabi tadbirlar yurt himoyachilarining oilalarida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish,



mavjud kasalliklarini barvaqt aniqlash va tez davolash, xastalikning surunkali holatga o'tib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

TANLOV

ENG ILG'ORLAR ANIQLANDI

Mudofaa vazirligiga qarashli Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida joylashgan harbiy qismda "Eng ilg'or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri" va "Eng ilg'or harbiy psixolog" tanlovlarining qo'mondonlik bosqichi o'tkazildi.

"Eng ilg'or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri" tanlovida harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini qaror toptirish, jangovar tayyorgarlik va komandirlik ko'nikmalarini samarali o'zlashtirish, kasbiy mahoratini takomillashtirish asosiy maqsad qilib olindi. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, harbiy qismlar va bo'linmalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan

ushbu tanlovda ishtirokchilarning nazariy va amaliy hamda harbiy-kasbiy tayyorgarlik bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Tanlovning amaliy qismida taktik, texnik, otish va jismoniy tayyorgarlik bo'yicha amaliy me'yorlar bajarilgan bo'lsa, nazariy qismida билет shaklidagi savollarga belgilangan muddat ichida javob berildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, katta leytenant Bahrom Joniyev (*Zarafshon shahri*) "Eng ilg'or vzvod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy

ishlar bo'yicha o'rinbosari", kapitan Ro'zimurod Murodov (*Karmana tumani*) "Eng ilg'or batalyon komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari" hamda podpolkovnik Bahodir Azimboyev (*Farg'ona shahri*) "Eng ilg'or brigada komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari" nominatsiyalari bo'yicha g'olib bo'ldi.

Shundan so'ng yuksak intellektual qobiliyat va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan eng malakali harbiy psixologlarni aniqlash maqsadida "Eng ilg'or harbiy psixolog" tanlovining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilarning xizmat faoliyati baholanib, bilimi va tafakkuri, mutaxassisligi hamda harbiy-kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan test sinovlari o'tkazildi.

Hakamlar hay'atining yakuniy baholariga ko'ra, kapitan Behruz Ashurov (*Toshkent*



shahri) 1-o'rinni egalladi. Kapitan Kamol Murodov (*Qashqadaryo viloyati*) ikkinchi va kapitan Ixtiyor Abdullayev (*Farg'ona viloyati*) uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu kabi bellashuvlar soha mutaxassislarning o'z bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, o'zaro tajriba almashishida muhim ahamiyatga ega.

BUNYODKORLIK

HARBIY QISMDA FUTBOL O'YINGOHI

Harbiy xizmatchilar va ularning farzandlarini jismonan chiniqtirish, sportga oid qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun qo'shinlarda zarur sharoitlar yaratib kelinmoqda.



Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism hududida mini-futbol o'yingohi foydalanishga topshirildi. Yangidan barpo etilgan, barcha zamonaviy sharoitlarga ega o'yingohning ochilish marosimida harbiy-ma'muriy sektor mutasaddilari, davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari qatnashdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar bugungi kunda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini sog'lom turmush tarziga jalb etish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinayotganini ta'kidladi. Tadbir so'ngida harbiy xizmatchilar o'rtasida futbol bo'yicha o'rtoqlik o'yini o'tkazildi.



MUSOBAQA

QO'MONDONLIK BOSQICHI O'TKAZILDI

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahridagi harbiy qism madaniyat markazida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi.



Bellashuvda 6 jamoa uchta shart, ya'ni "Tanishtiruv", "Men komandir bo'lsam" va "Musiqali uyga vazifa" yo'nalishlari bo'yicha o'z mahoratini namoyish etdi. Respublikamizning deyarli barcha hududlaridan saralanib, qo'mondonlik bosqichiga yetib kelgan harbiy xizmatchilarni adolatli baholab borish uchun rejissyor, so'z ustasi Anvar Salimov, umidli xonanda Sherzodbek Jonibekov va "Gap yo'q" triosi a'zolari taklif etildi.

Harbiy xizmatchilar nafaqat kuch va g'ayrati, balki hazil-mutoyiba qilish qobiliyatini ham namoyish etib, tomoshabinlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Jamoalarning navbatdagi shartlarga tayyorgarlik ko'rishi uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida "Baxshichilik" ko'rik-tanlovining qo'mondonlik bosqichi ham o'tkazildi. Unda harbiy qismlardan saralangan 5 nafar havaskor baxshi xalq og'zaki ijodidan foydalangan holda o'zlarining milliy folklor san'atidagi iste'dodini namoyish etdi. Tanlovda xushovoz xonandalar va harbiy orkestr tomonidan tarannum etilgan diltortar navolar tomoshabinlarga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Ajrsak-da, birgamiz" jamoasi (*Navoiy viloyati*) 1-o'rinni egalladi. 2-o'rin "Energiya" (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*) va 3-o'rin "Fidoyilar" (*Toshkent viloyati*) jamoalariga nasib etdi.

"Baxshichilik" tanlovining yakuniga ko'ra, kichik serjant Shimbergen Jabborbergenov (*Toshkent shahri*) 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Kichik serjant Dilafruz Suyunova (*Qashqadaryo viloyati*) ikkinchi hamda kichik serjant Qaynar Chorshanbiyev (*Qoraqalpog'iston Respublikasi*) uchinchi o'ringa munosib deb topildi. G'oliblarga qo'mondonlikning ko'chma kubogi tantanali ravishda topshirilib, Mudofaa vazirligi bosqichiga yo'llanma berildi.

Kapitan Ahrorjon SAFARALIYEV

KINOIJODKORLAR HARBIYLAR MEHMONI

Mamlakatimizda joriy yilning 15-avgustidan 15-sentabrigha qadar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan respublikamiz bo'ylab "Yangi O'zbekistonning yangi kinolari" oyligi doirasida "Kinokarvon" aksiyasi o'tkazilmoqda.



Mazkur aksiya doirasida Markaziy harbiy okrugning madaniyat va ma'rifat markazida bir guruh ijodkorlar bilan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida ijodiy uchrashuv o'tkazildi. O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov, Anvar Azimov, Egamberdi Rahimov, Akbarali Mavlonov, aktrisalar Vazira Yunusova, Mukarram Bekmurodova, Anjelika Eshenbetovadan iborat ijodiy guruh harbiy okrugda mehmon bo'ldi.

Poytaxtdan tashrif buyurgan mehmonlar harbiy orkestr jamoasining kuy-qo'shiqlari bilan tantanali kutib olindi va garnizondagi harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi. Elimiz suyan, taniqli aktyor va aktrisalar uchrashuvda o'zbek milliy kino san'atidan o'rin olgan eng sara vatanparvarlik ruhida asarlar, ularning yaratilish tarixi, tasvirga olish jarayonlari haqida so'zlab berdilar. Shuningdek, har bir san'atkor o'zi ijo etgan kinofilm va spektakllardan parchalar namoyish etgani barchani birdek quvontirdi. Uchrashuv yakunida ijodkorlarga Mudofaa vazirligi va harbiy okrug qo'mondonligining tashakkurnomalari taqdim etildi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati



SAXOVAT VA KO'MAK

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi olis Dehqalandar qishlog'ida istiqomat qilib kelayotgan Turdiov Hamzayeva 72 yoshda. 12 yildirki, birovning ko'magisiz yura olmay qolgan. Olti o'g'il va besh qiz farzandni o'stirib, bugun salomatligi yomonlashib qolgan onaxonning holidan xabar olish maqsadida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni boshchiligidagi bir guruh harbiy xizmatchilar sovg'a-salomlar bilan uning xonadoniga bordi.



Oilaning ijtimoiy ahvoli, ehtiyojlari o'rganilib, Turdiov ayaga harakatlanishi uchun nogironlik aravachasi topshirildi. Shuningdek, harbiy shifokorlar tomonidan dastlabki tibbiy ko'rik o'tkazilib, birlamchi dori vositalari hadya qilindi. Harbiy okrug qo'mondoni tomonidan mas'ullarga ayanning to'liq davolanishi uchun Termiz harbiy hospitaliga joylashtirish vazifasi qo'yilganidan quvongan onaxon el-u yurt va harbiylar haqqiga duo qildi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik shodiyonalari arafasida qilinayotgan bu kabi saxovatli ishlar ko'plab oilalar quvunchiga xizmat qilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

TARAQQIYOT VA FAROVONLIK YO'LIDA

Andijon viloyati hokimligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi, viloyatdagi harbiy qism va muassasalar, shuningdek boshqa kuch tuzilmalari va qator davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda "Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!" shiori ostidagi ko'pkurash bo'yicha harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining viloyat bosqichi tashkil etildi.



Hududning barcha tuman va shahar bosqichlarida g'olib bo'lgan 16 ta jamoa viloyat birinchiligi uchun kurash olib borgan ushbu musobaqada ishtirokchilar tezkor savol-javob, avtomatni qismlarga ajratish va yig'ish, kamondan o'q otish, harbiy biatlon, arqon tortish shartlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Murosasiz kechgan musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Marhamat tumani jamoasi egalladi. 2-o'rinni Oltinko'l, 3-o'rinni Izboskan tumani jamoalariga nasib etdi. G'oliblar Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi va mutasaddilar tomonidan medal, diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Shu kuni Farg'ona viloyatining Qo'qon shahridagi "Xudoyorxon o'rdasi" maydonida "General va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Oybek Saidov, harbiy xizmatchilar, viloyatning yuzdan ortiq yoshlari ishtirok etdi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning Vatanga sadoqatli bo'lib ulg'ayishlarida bu kabi uchrashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qiziqarli savol-javoblarga boy va samimiy ruhda o'tgan suhbatda okrug qo'shinlari qo'mondoni yoshlarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berdi. Shuningdek, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarga yaratilgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdi. Tadbir so'ngida bir guruh faol yoshlarga harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining esdalik sovg'alari topshirildi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati



BAYRAMONA SOVG'ALAR ULASHILDI

Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan jasorat va matonat ko'rsatgan harbiy xizmatchilar oilalariga bayramona sovg'alar ulashildi. Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida tashkil etilgan ushbu tadbir xonadonlarda bir olam quvunch bilan qarshi olindi.



Bayram munosabati bilan oilalarni yo'qlash, keksalarning holidan xabar olish xalqimizga xos qadriyatdir. Toshkent harbiy okrugi bir guruh harbiy xizmatchilarning harbiy oilalar bilan qurgan samimiy suhbatida bugungi dorilamon kunlarga shukronalik, yurt posbonlarining Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga qo'shayotgan munosib hissasi to'g'risida so'z bordi. Vatan himoyachilarining jasorati, mardligi va matonati alohida e'tirof etildi.

Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati



Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayramiga bag'ishlab, pahlavonlar peshvosi, hamisha zafar quchgan, kuragi yerga tegmagan Pahlavon Mahmud yurtida, Markaziy Osiyodagi yirik va noyob tarixiy-me'moriy yodgorlik bo'lmish ko'hna va boqiy Xiva shahridagi Ichan qal'a majmuasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kuch tuzilmalari o'rtasida "Mudofaa vaziri kubogi" uchun kurash bo'yicha hamda Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilari o'rtasida sportning dzyudo turi bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi.

SARA PAHLAVONLAR BELLASHDI



"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida o'tkazilgan kurash musobaqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va Xorazm viloyati ichki ishlar boshqarmasi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi boshqarmalari hamda Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilaridan iborat jami 70 nafardan ortiq sportchi ishtirok etib, 7 ta vazn toifasida "Mudofaa vaziri kubogi" uchun kuch sinashdi.

Shuningdek, dzyudo bo'yicha Mudofaa vazirligi musobaqasida harbiy okruglar, birlashma, oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda markazga bo'ysunuvchi harbiy qismlardan iborat 15 ta jamoaning 105 nafar a'zosi 7 vazn toifasida g'oliblik uchun bellashdi.

Musobaqaning ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, Xorazm viloyati hokimining o'rinbosari San'atbek Salayev, Mudofaa vazirligi jismoniy tayyorgarlik va sport katta inspektori polkovnik Avaz Azimov, kuch tuzilmalari vakillari, harbiy xizmatchilar, Respublika kurash federatsiyasi vakillari, taniqli sportchilar ishtirok etdi.

Tantanali marosimda general-mayor Farhodjon Shermatov butun

jahon nigohiga tushib, dovrug va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga mahliyo etayotgan milliy kurash jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Musobaqada Mudofaa vazirligi qo'shinlari harbiy xizmatchilari bilan birga kuch tuzilmalari sportchilari ham yuqori tayyorgarliklarini ko'rsatib, kuchli raqobat muhitini yaratishdi. Murosasiz bahslarga boy o'tgan chempionat ham katta sportga kirib kelayotgan yosh va umidli sportchilar, ham yuksak natijalarga erishib ulgurgan tajribali polvonlarga o'zaro tajriba almashish, o'z kuchi va imkoniyatlarini yana bir bor sinovdan o'tkazish hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga imkon yaratdi.

Chempionatda ishtirok etgan sportchilarning ta'kidlashicha, musobaqani o'tkazish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, mana shunday tarixiy obida, pahlavonlar yetishib chiqqan joyda tashkil etilishi yanada kuch va shijoat bag'ishlab, jangovar ruhni oshirdi.

Ta'kidlash joizki, armiyada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sportning yakkakurash turlarini ommalashtirish, harbiy xizmatchilar o'rtasida sog'lom



turmush tarzini targ'ib etishda mana shu kabi ko'plab musobaqalarning o'rni beqiyos bo'lmoqda. Bugun deyarli barcha sport turlari bo'yicha Mudofaa vazirligi o'z chempionlari, Vatanimiz sha'nini jahon arenalarida ham munosib himoya qilib kelayotgan harbiy xizmatchilari bilan faxrlanishi mumkin.

Kurash bo'yicha "Mudofaa vaziri kubogi" uchun kechgan bahslarning yakuni bo'yicha faxrli 3-o'rinni Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi egallagan bo'lsa, 2-o'rin Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha Milliy gvardiya boshqarmasiga nasib etdi. Shohsupaning yuqori pog'onasidan 3 ta birinchi o'rin, 2 ta ikkinchi va bitta uchinchi o'rinlar bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

jamoasi egallab, "Mudofaa vaziri kubogi" bilan taqdirlandi.

Dzyudo sport turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan musobaqaning yakuni bo'yicha umumjamoa hisobida 1-o'rinni Shimoli-g'arbiy harbiy okrug va Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonliklari egalladi.

Bellashuvning ikkinchi pog'onasini Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi vakillari egallagan bo'lsa, kuchli uchlikdan Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi sportchilari joy oldi.

Musobaqalarda g'olib va sovrindor jamoalar hamda sportchilar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi tomonidan medal, diplom, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



Podpolkovnik Timur NARZIYEV, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i



“OY-U QUYOSH KO'RPA SOLGAN AYVONIM, VATAN”

Hayot nadir – matonatdir,
shijoatdir, zamondosh,
Yashash nadir – kurashlardan
iboratdir, zamondosh.



Kitobsiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Kitob – hayotimning bir bo'lagi, hayotimning mazmuni. Kitob bo'lmasa edi, yasham zavqsiz, dunyo fayzsiz, bir xil rangdan iborat bo'lib qolardi.

Keyingi paytlarda ko'zlarim pand berayotganini sezaman. O'qiyolmay qolsam-a, degan qo'rquvni his qilaman va shu zahoti o'zimga tasalli topaman: “hozirgi tibbiyot ancha rivojlangan...” Birovning kitob o'qib berishiga toqat qilolmayman, o'zim o'qishim kerak, har bir tovush, har bir so'zni ko'rib, his qilib o'qishim kerak.

Kitobga bo'lgan katta muhabbatimga qaramasdan, kitobxonam boy emas. Tanglik, torlik kunlarda bir chetda sarg'ayib, mung'ayib qoldilar, ayrimlarini arzimagan bahoga sotdim. Bir qisminigina asrab kelaman. Har birining o'z tarixi bor, qayerdan sotib olganim ham yodimda, ayrimlarini bozorda eski-tuski narsalarini sotib o'tirgan keksalardan olganman. Ba'zi kitoblarimda mualliflarning dastxatlari bor. Ularni alohida qadrlayman. Qo'ldan qo'lga o'tgan mehr harorati bor ularda.

Kitobni eng yaxshi tuhfalardan biri deb bilaman. Sovg'a qilsalar, sevina-sevina qarshilayman. Yaqinda ana shunday qadri tuhfa oldim. Buni aziz o'quvchilarimiz bilan bo'lishgim keldi. Muqovasiga ilk ko'zim tushganida ko'nglimda rashk, qizg'anishga o'xshagan tuyg'u kechgani rost. Biroq sinchiklab qarasam, moviy osmonga tutash moviy gumbazlar o'zimizniki, oftob bag'ridagi Humo bizniki...

Negadir kitoblar haqida yozganimda shoshilib ketaman. So'z qaysi kitob haqida ketayotganini o'quvchilar bilmaydi-ku? Bu sevimli shoirimiz Sirojiddin Sayyidning “Millat baxtin so'rar millat otasi” kitobi. Men bu kitobni Vatan haqidagi qo'shiq deb bildim. Muallif kitobga yozgan dastxat tepasiga boychechak rasmini chizib, uzatar ekan, “bahorga yetishish tilagi bilan”, dedi. Juda sevindim ich-ichimdan. Nega, deysizmi? Chunki shoir satrlarida boychechakni ko'rganman, u shunchaki bahor elchisi emas, shoir ijodida mehr bilan tilga olinadigan jonli chechakdir.

Maqtanib bo'ldim. Endi kitobni varaqlaymiz. Yo'q-yo'q, **o'qiymiz:**

*Bobo qirlardagi bir xas yo tikan,
Shu ham kimlargadir zo'r armon ekan.
Ko'p ekan zar topib, zor bo'lib yurgan,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.*

Hozir pishiqchilik payti bo'lganidan shaharda ham katta yo'llar yoqasida qovun-tarvuzlar sotiladi. Ishdan qaytayotsam, katta mashinadan qovun tushirilayotgan ekan. Katta-katta sariq qovunlar. Shu payt ko'zim yerda yotgan chechaklari moviy tikanak o'tga tushdi. Uzoq yillik qadrdonimni ko'rgandek bo'ldim, dala chekkasidagi tuproq yo'llar, bir chiroyli gullaydigan tikanli o'simliklar ko'z oldimda paydo bo'ldi. Engashib, tuproqqa belanib yotgan tikanak o'tni olgim keldi, olmadim, iymandim. Negadir ko'zlarimga yosh keldi. Moviy chechaklar ortimdan ma'yus boqib qolgandek. Men u tuproq yo'llar va dalalardan juda uzoqlashib ketdim...

O'qiymiz:

*Moziylarga boqsam – faqat yong'inlar,
Iskandar, Dorolar – yovlar, yog'iylar,
Or-nomus qalqoni – yorlar ko'ksidir,
Yorning siynasida kamon-yoy yig'lar,
Erk, kurash yo'lida jonim, qurbonim,
Qizim, o'g'lonimsan, buyuk Turonim.*

Aziz o'quvchi, avvallari ham bir necha bor ta'kidlaganimdek, kaminangiz adabiyotshunos emas, shunchaki adabiyotsevar biri. Sevil o'qiganim, mutaassir bo'lganim, meni adoqsiz o'ylarga toldirgan asarlarni sizga ham ilingim keladi. O'zim bir qator ham she'r yoza olmayman, men she'rlar yozishdek ilohiy ilhomlar bilan siylanmaganman. She'riyat tahlili qo'limdan kelmaydi, bu adabiyot sinchilariga havola. Ammo she'riyatni sevaman. Ko'cha-ko'yda ham dunyoni unutib, sevimli satrlarimni ming'illab yod o'qiyman. Qachonlardir shoirning “To'planib-to'planib barcha og'riqlar, Mening ko'kragimda dil bo'ldi, ona” misralarini daftaringa ko'chirib qo'yganman. Bu daftar hozir sarg'ayib, sochilib ketay deb qolgan. O'zimga yoqqan satrlarni ko'chirib

qo'yaverganman, ruhiy holatim, quvonchlarim, qayg'ularimga esh misralar, xuddi ko'nglim oynasi kabi. Shoirilar o'z dardlarini qog'ozga tushiradilar, biz esa ularni o'zimiznikidek qabul qilamiz. So'z shunday zabtkor kuch, qalblarni zabt etadi.

Sirojiddin Sayyidning bu kitobi farzandlarimiz uchun ham go'zal tuhfa bo'ladi. “Ehtirom” deb nomlangan she'r qahramon shoirimiz Abdulla Oripovga atalgan. U ulug' shoirimiz hayot vaqtlarida bitilgan.

O'qiymiz:

*Tuzumlar uzra chaqnaib,
ko'kda chaqmoqlarni so'ndirgan,
Muhit devorlariga dil
bilan chechaklar undirgan,
Ko'mir dillarni kuydirgan,
temir yillarni sindirgan,
Fig'on Abdulla Orifisiz,
hamon Abdulla Orifisiz.*

So'zga, she'riyatga qanchalik mehrimiz bor, bular ulug' shoirimiz Abdulla Oripov tufaylidir. Ilk kez taniganimiz, anglaganimiz she'rlar, mehr-la yod olganimiz she'rlar uchun, yoshligimizga zeb bergan, fayzli qilgan ko'rkam ijodi uchun undan minnatdormiz.

Bugun internet tufayli insonlarning yaxshiyomon ishlari tilga tushib ketadi. Dunyoning narigi chekkasida jonivorlarga ko'rsatilayotgan mehrdan hayajonga tushadilar, olqishlaydilar, ammo yurtimizdagi saqlov joylaridagi jonivorlar uchun bir kunlik yemagiga muruvvat ko'rsatish xayollariga kelmaydi. Olisdagi odamlar qayg'usiga beparvo emaslar, ammo qo'shni holidan bexabar ko'p. Boshqa millatlar, xalqlarning yaxshi fazilatlarini og'izlaridan bol tomib maqtaydilar, o'zlari o'znikini o'zagini uzadi, tuproq bilan teng qiladi, adolatsizliklar, zulmga munosib ko'radi.

Bizning millatimizda ham dunyo ahlini hayratga soladigan ezguliklar bisyor, fazilatlarimiz adoqsiz. Shunchaki, atrofga xolisroq, teranroq boqing. 2020-yili uylarimizga qamalgan sinovli kunlar yodingizdami? Sirojiddin Sayyidning “Eldoshlarim, dildoshlarim” she'ri ana shu sinovli kunlarda xalqimiz sha'niga aytilgan hamdlardir.

Bu she'r'dan parcha keltirish qiyin. Xuddi marvarid donalari kabi tizilgan.

O'qiymiz:

*Taskin uchun qamishdan ham kuy chiqargan,
Xush xabarning peshvoziga qo'y chiqargan.
Pok niyatdan qancha fikr-u o'y chiqargan:
O'ylab-o'ylab, hajga yig'gan puliga ham
Qaqrab yotgan qishlog'iga suv chiqargan.
Eldoshlarim, dildoshlarim, tildoshlarim,
Hajga bormay, hoji bo'lgan eldoshlarim,
Dildoshlarim, tildoshlarim, yo'ldoshlarim.
Bu sinovli kunlar ham tez o'tar-ketar,
Bu sinovli yilda aziz yildoshlarim.*

Qalbi uyg'oq insonlar yuragida til va millat dardi bilan yashaydi. Chunki dunyo ayvonida bizni “Biz o'zbeklar...” dedirgan tilimizdir.

Shoirning “Til va millat maqomi”dan **o'qiymiz:**

*Bobur Mirzo sog'ingan ul qovunlarday,
Qolib ketding ne-ne dovul quyunlarda.
“Boburnoma”ng jabrnomang bo'ldi sening,
Har nomang bir sabrnomang bo'ldi sening.
Avlodlarga mangu meros dastxatimsan,
Millatimsan, ona tilim, davlatimsan.*

Hamma ham tilim desin, millatim desin. Shoirning yurt va yurtdoshlarni madh etgan haroratli satrlari Vatan deganlarga esh bo'lsin. Kitobdagi barcha she'rlarni, ularning haroratini, jo'shqinligini o'zingiz o'qimas ekansiz, anglatish mushkul. Unda Vatan haqidagi qo'shiqlardan tashqari “Qirq hadis” – “Arba'in” turkumi ham joy olgan. Xalqimizning ardoqli shoiridan go'zal tuhfa ko'ngil xazinangizdan joy olishiga ishonamiz. So'zimizni shu yerda shoirning “Duoyi salom”dan parcha bilan muxtasar qilamiz:

*Bu dunyoda har kimga ham ayting xush kalom,
Mendan sizga, do'stlar, bu bir duoyi salom.
Bizni yaxshi ko'rganlarga tole yor bo'lsin,
Bizni yomon ko'rganlar ham baxtiyor bo'lsin.*

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,

Inobat IBROHIMOVA,
«Vatanparvar»

ILM-FAN YANGILIKLARI

XITOIY NEYROTARMOG'I BOSHQA MAMLAKATLAR HARBIY BAZALARI BILAN QIZIQDI

Xitoylik olimlar Yerni yo'ldosh orqali zondlashni sun'iy intellektga ishonib topshirishdi.

Xitoyning Uxan universiteti olimlari "Geomatics and Information Science" jurnalida qiziqarli, shu bilan birga, xavotirli tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Mazkur tadqiqot doirasida Yerni yo'ldosh orqali zondlash apparati "Qimingxing 1"ni 24 soat davomida sun'iy intellekt boshqaruviga topshirib ko'rdi. Boshqaruvga hech kim aralashmadi.

Tajribadan maqsad sun'iy intellekt mustaqil ravishda nima qiladi va o'z-o'zicha nimalarni kuzatadi, degan savolga javob topish edi. Sun'iy intellektning birinchi qilgan ishi bir necha joyni tanladi va "Qimingxing 1" yo'ldoshiga bu joylarni yaqinroq ko'rishga buyruq berdi.

Dastavval neyrotarmoq Hindistonning Gang daryosi sohilida joylashgan qadimiy shahar Patnaga hamda Hindiston armiyasining Bixardagi polki bazasiga nigohini tashladi. Ushbu bazadagi harbiylar 2020-yilda Galvan vodiysidagi bahsli chegara hududida xitoylik harbiylar bilan to'qnashgan edi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt Yaponiyadagi AQSh harbiy dengiz kuchlari kemalari to'xtaydigan Osako portini ham kuzatgan.

Jamoatchilik ushbu tadqiqotni qiziqarli, deb topdi, lekin boshqa bir tomoni xavotirli hamdir. Chunki bunday harakatlar sun'iy intellekt bajaradigan missiya tartibini buzadi. Shu vaqtgacha sun'iy yo'ldoshlarga nazoratni amalga oshirish yoki boshqa harakatlarni bajarishi uchun inson tomonidan aniq buyruqlar berilardi. Ularni sun'iy intellekt boshqaruviga faqat tang vaziyatlarda topshirish mumkin bo'ladi.

Oshkor etilgan hujjatlarda keltirilishicha, Xitoyning 260 tadan ziyod yo'ldoshi Yer orbitasi bo'ylab uchib yuribdi, biroq ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

Yo'ldoshlar anchayin qimmat, ularning xizmat ko'rsatish muddati cheklangan. Biz zudlik bilan ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimiz kerak, deydi uxanlik tadqiqotchilar.

OLIMLAR DUNYO OKEANINING HARORATINI O'LCHADI VA DAHSHATGA TUSHDI

Amerikalik iqlimshunos olimlarning ma'lum qilishicha, dunyo okeanlarining yuza harorati rekord darajada isigan. Aprel boshida harorat 21,1 darajani tashkil etgan. Bundan avvalgi rekord, ya'ni 21 daraja 2016-yilda qayd qilingan edi, deb yozmoqda "The Guardian".

Olimlarning ta'kidlashicha, qo'shimcha issiqlikning 90 foizidan ko'prog'i qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish hamda o'rmonlarni kesish natijasida atmosferaga tarqalayotgan is gazi tufayli sodir bo'lmoqda.

Avvalgi tadqiqotlar ham issiqlik miqdori okeanlarda to'planib, suv tubiga yanada chuqur kirib borayotganini tasdiqlagan edi. Masalan, Tinch okeanining tropik qismidagi issiqlik 100 metrdan ortiq chuqurlikka tarqaladi.

Okeanlarda to'planayotgan issiqlik Yer atmosferasida yuz berayotgan turli hodisalarga ham sabab bo'lmoqda, deydi olimlar.

QUYOSH MASSASIDAN 33 MILLIARD MARTA OG'IR BO'LGAN GIGANT QORA TUYNUK TOPILDI

Britaniyalik falakshunoslarning ma'lum qilishicha, qora tuynukni kuzatish tarixida eng yirik kashfiyot amalga oshirildi. U Yerdan 2,7 milliard yorug'lik yiliga teng masofada joylashgan galaktikadagi eng yorqin "Abell 1201" yulduzlar turkumida yashiringan ekan. Maqola "Live Science" jurnalida chop etilgan.

O'ta og'ir obyektga hali ham nom qo'yilmadi. Olimlar haligacha uni o'rganishmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, topilgan qora tuynukning massasi Quyosh massasidan taxminan 30 milliard, Somon Yo'li markazidagi qora tuynukdan esa 8 ming marotaba katta.

ICHKARISI NANOTUZILMALARGA EGA KELAJAK BO'YOG'I YARATILDI

An'anaviy bo'yoqlar rangi sintetik pigmentlar hisobidan olinadi. Ular ekologiyani buzishi yetmaganidek, vaqt o'tishi bilan xiralashib boradi. Endi esa kapalaklarning yorqin qanotlaridan ilhom olgan tadqiqotchilar ushbu muammoni hal qilish yo'lini topishdi.

Markaziy Florida universiteti olimlari "plazmali bo'yoq"ni yaratdilar. U bir-biriga bog'laydigan suyuqlik (*polimer smolasi va izopropil spirt*)dan hamda alyuminning juda kichkina shishali parchalaridan iborat, deb yozmoqda "New Atlas" nashri.

Nanozarra va ularning orasidagi masofa bo'yoqning yakuniy rangiga ta'sir qiladi. U moviy, jimjimador yoki sariq bo'lishi mumkin. Agar parchalar bir-biri bilan aralashtirilsa, boshqa rangdagi bo'yoqni ham olish mumkin.

Olimlarning ta'kidlashicha, alyumin bo'yoqlarning atrof-muhitga zarari hozirda oddiy bo'yoqlarda qo'llanilayotgan sintetik pigmentlarga qaraganda ancha kam. Yana bir yaxshi tomoni – pigmentlar fotonlarni yutish qobiliyatini vaqt o'tgan sayin yo'qotib boradi va natijada bo'yoqning tashqi ko'rinishi xira tortadi, nanotuzilmali parchalar esa har doim yorqinligicha qoladi.

Kelajak bo'yoqning sarfi ham unchalik katta emas. Masalan, "Boeing 747" samolyotini bo'yab chiqish uchun taxminan 1,4 kilogramm plazmali bo'yoq yoki 454 kilogramm oddiy bo'yoq talab etiladi, deydi mutaxassislar.

Nanotuzilmali bo'yoqni ishlab chiqarish hozircha qimmatga tushadi. Chunki u faqat laboratoriyada yaratildi. Biroq olimlarning ta'kidlashicha, kelgusida texnologiyalar ushbu nanobo'yoqni ommaviy tartibda chiqarish imkonini beradi.

100 MILLION YIL MOBAYNIDA QIT'ALAR QANDAY O'ZGARISHLARNI BOSHIDAN KECHIRDI?

Avstraliyaning Sidney universiteti tadqiqotchilari Yer tuzilishining oxirgi 100 million yildagi o'zgarishi videosini yaratishdi. Unda iqlim, daryolar harakati, dunyo okeanlari, mineral cho'kmalar, tektonik plitalarning siljishi, vulqon otilishlari va boshqa tabiat hodisalari o'rganilgan.

Videoda Yer yuzasining 100 million yildagi o'zgarishi tasvirlangan. Bir million yilda qit'alar 10 kilometrga siljigan.


Olimlarning fikricha, ular olib borgan tadqiqotlar Yer kelajakda qanday o'zgarishlarni boshdan kechirishini bilishga yordam beradi.

Avstraliyaning boshqa bir universiteti tadqiqotchilari esa 200 million yildan keyin sayyoramizdagi barcha qit'alar yagona Amaziya super qit'asiga birlashadi, demoqda. Avstraliya Yevroosiyo bilan birlashib, Amerika tomonga siljiy boshlaydi. Dunyo okeanlari sathi pasayadi, Tinch okeani yopiladi va faqat Hind hamda Atlantika okeani qoladi.

Qit'alar birlashuvi yangi iqlim sharoitini yaratadi. Olimlarning ta'kidlashicha, Yerdan kunduzlari juda yuqori haroratli quruq ob-havo bo'ladi. Antarktika taqdirini hozircha aniqlashning imkoni bo'lmadi. Ehtimol, u abadiy siljimaydigan qit'aga aylanadi.

Darvoqe, olimlarning aytishicha, qit'alar to'qnashuvi davriy jarayondir. Sayyoramiz tarixida bunday hodisa ro'y bergan. Amaziya super qit'asi shakllangandan keyin ma'lum davrlar o'tgach, qit'alar yana tarqaladi va yangilari paydo bo'ladi.

Internet xabarlarlari asosida S. RAHIMOV tayyorladi.
O'za



Xizmat safari bilan Surxondaryoga boradigan bo'ldim. Sherik ham tayyor: Termizdagi vakilimiz, ikki kun oldin poytaxtga kelgan Akbar aka Ahmedov ikkov poyezdga chiptalarni to'g'rilab, birga yo'lga chiqadigan bo'ldik. U ham xursand, men ham – gurung-gurung bilan olis yo'lni “ko'rdim demay” ketamiz, deb cho'tlab o'tiribmiz.

Iyulning adog'i, chilla avjiga chiqqan emasmi, uning ustiga vokzalda kun bo'yi yo'lovchilarni kutib turgan temir vagonlar qizigan tandirdek bo'lib turibdi. Poyezd yuraman deydi-yu, yo'lovchilarning hech biri yurak yutib, vagonga bosh suqqisi kelmaydi. Iloj qancha, issiqmi-sovuqmi, ketish kerak.

Chiptamizda ko'rsatilgan vagon kupesiga borsak, o'ttiz besh yoshlar chamasi bir rus millatiga mansub ayol qizarib pishgan kulchadek bo'lib turibdi. Uzuq-yuluq salomlashib, joy-joyimizga o'tirdik. Hali to'rtinchi sherigimiz kelgani yo'q. Hamma qo'lga ilingan buyum bilan yelpib, o'zini o'zi sovitish ko'yida. Shu payt vagon konduktori (*provodnik*) kupe eshigidan bosh suqdi-da, haligi ayolga rus tilida shunday dedi:

– Xo'o'sh, yaxshi ketyapsizmi? Hammasi joyidami?

Savolning naqadar g'alati ekanligini avval ayolning yuz ifodasi, so'ng o'zi aytdi:

– Bunaqa sharoitda qanday qilib yaxshi ketish mumkin?

Akbar aka quvlik qiladi:

– Bu kupeda biz ham bor, – konduktor bu gapga e'tibor ham bermadi va:

– Hozir poyezd maksimal tezlikka chiqib olsin, shundan keyin kupening sovuqligidan bu yerda o'tirolmay qolasiz, – dedi.

Ayol indamadi. Shu payt to'rtinchi sherigimiz salom bergancha sekin kirib keldi-da, qayerga o'tirishini bilmay, biroz kalovlanib turdi. Joy taklif qilganimizdan so'ng o'tirdi-da, vagonning issiqligidan noliy ketdi. Konduktor aka esa yana o'sha gapini qaytarib aytdi.

– Poyezd tezlashguncha qancha vaqt kerak o'zi? Ungacha Surxondaryoga yetib olmaymizmi? – dedi to'rtinchimiz.

– Yo'q, aka, hademay sovib qoladi, – dedi-yu, bu yerdan tezda ketishi kerakligini anglab yetdi.

Akbar aka bilan yo'l-yo'lakay gaplashib ketyapmiz. To'rtinchi zerikdi chog'i, biz bilan suhbatlashmoqchi bo'ldi. Nima ish qilishimizni, qayerga, nega ketayotganimiz bilan qiziqqan edi, tayinli javob ololmay biroz jim bo'lib qoldi-da, keyin yana tilga kirdi.

– O'zi samolyotda ketishimiz kerak edi, bugunga kelib nimagadir chipta topilmay qolibdi. Poyezdga chiqmaganimga ancha yillar bo'lib ketgandi, yurib bo'lmay qolibdi. Temir yo'llarning rahbari yaqinda almashgan edimi, bu yerdagi sharoitlar haqida bir aytilish kerak ekan-da.

– Ey, shunday qiling-e, hozir aytasangiz-chi? – deymiz biz ham. U cho'ntagidan telefonini chiqardi-da:

– Unda bunday qilamiz, men blogerman, bugun shu mavzuni olib chiqamiz, – dedi. Qarasam, Facebook ilovasini ochib, jonli efirmi boshlab yubordi. – Assalomu alaykum, hurmatli Facebookdoshlar, men ... (*nimadir dedi, lekin eslab qololmadim-da*) Zominiy, hozir bir holat bo'ldi, o'shani sizlar bilan bo'lishmasam bo'lmaydi. Biz hozir poyezdda Toshkent – Termiz yo'nalishi bo'yicha harakatlanib ketyapmiz. Lekin bu yerda yo'lovchilar uchun umuman sharoit yo'q, xonalar juda issiq. Konditsioner ishlamay qolganiga ancha yillar bo'lgan bo'lsa kerak-ov...

– Xo'o'sh, endi qalay, ancha sovib qolibdi-ku, – degancha provodnik kelib qoldi. U tabiiyki, to'rtinchining jonli efir qilayotganini xayoliga ham keltirmagan va ayni damda ham keltirmayotgan edi. Ayol provodnikka bir qarab qo'ydi-yu, quruq gapdan foyda yo'qligini bilib, tashqarini kuzatgancha indamay ketaverdi.

– Aka, bu vagon bugun soviydimi o'zi? Odam ivib ketdi-ku, – to'rtinchi jonli efirini davom ettirgancha vagon mas'ulini savolga tuta boshladi. Bechora konduktor ham ancha sodda odam ekan shekilli, ovozi, harakatlari jonli efir orqali ijtimoiy tarmoqqa uzatilayotgani tugul tasvirga olinayotganini ham sezmay, yana o'sha maksimal tezlik haqidagi gaplarini takrorlagancha kupeni tark etdi.

– Mana, azizlar, barchangiz guvoh bo'ldingiz, provodniklarimiz ham biror tayinli javob ayta olmayapti. Men esa sizlarga hozir vagonning boshqa tomonlarini ham ko'rsataman, – degancha kupe tashqarisiga chiqib ketdi.

Bu orada Akbar aka ikkovimiz vokzal do'konidan olgan kolbasa va nonimizni yeyish taraddudiga tushib ketdik.

– Mehmonga o'xshaysiz, qayerliksiz? Qani, keling, – dedim ayolga.

– Yo'q, rahmat. Hozir faqat suv ichyapman, boshqa narsa xohlamayapman, – degancha ikkinchi savolga o'tib ketdi. Men esa tixirlik qilib, birinchi savolni eslataman. – Sankt-Peterburgdanman, har yili bir marta kelib ketaman bu yerlarga.

– Ha, yaxshi. Mening ismim Islom, bu kishi Akbar aka. Sizning ismingiz nima?

– Mariya.

– Chiroyli ism ekan. O'tgan yili Sankt-Peterburgda bo'lgan edim. Shahar menga yoqqandi. Bu yerlarda nima qilib yuribsiz, Mariya?

– Bu juda shaxsiy savol-ku, – dedi u ma'noli va ayni damda mahzun ohangda.

– Ha, shaxsiy-ku-ya, lekin nimagadir menga qiziq tuyuldi...

Mariya bilan suhbatimiz shu yerga yetganida to'rtinchi va provodnik ketma-ketlikda kupega kirib keldi.

– Mana, ancha sovib qolibdi-ku, endi mazza qilib ketasizlar, – provodnik qandaydir mamnun ohangda xonaning sovuq ekanligiga o'zini ham, bizni ham, ayniqsa, mehmonni ishonitirgisi kelardi. Lekin, to'g'risi, kupe hali mazza qilib ketadigan darajada emasdi.

– Qo'ysangiz-chi, aka, bu vagon soviydiganga o'xshamaydi. Men blogerman, boya jonli efir qildim. Endi biror o'zgarish bo'lib qolishi aniq, – dedi to'rtinchi. Provodnikning rangi oqardi, qarashlari o'zgardi. U zo'rg'a:

– Meni olmadingizmi ishqilib? – deya oldi xolos. Blogger esa bamaylixotir ohangda:

– Albatta, siz ham borsiz, boya kirganingizda gaplaringiz jonli efrida ketdi, – dedi. Provodnikning ta'bi tirriq bo'lishi uchun shu gapning o'zi yetarli bo'ldi.

– Nimaga ruxsatimsiz tasvirga olasiz, tezda o'chirib tashlang?! – dedi u avval buyruq ohangida.

– Iye, bu nima deganingiz? Nimaga o'chirar ekanman, hech narsa bo'lmaydi, “zato” sharoitlaringiz yaxshilanib qoladi. O'zlaringiz ham maza qilib ishlab yurasizlar, – deb joyiga yaxshilab o'r'nashib oldi u.

Provodnik bechora kupega kiradi-chiqadi, nima qilishini, nima deyishini bilmayapti. Oxiri yalinishga tushdi.

– Jon uka, o'n yetti yildan beri ishlayman, bilasiz, oyligimiz katta emas, bu voqea rahbariyat qulog'iga yetib borsa, meni shu zahoti ishdan olib tashlaydi. Bola-chaqam bor, uka!

To'g'risi, uning bu holiga qarab, achinib ketdim. Odamzodning odamzod qoshida bu darajada xo'rlanishini ko'rgandan ko'ra, rostmana tandir ichida Termiz tugul Nukusgacha ham miq etmay ketgan yaxshiroq edi. Yana bir to'g'risi, to'rtinchi baribir o'chirmasa kerak, degan o'y ko'nglimdan o'tib turardi. Yo'q, adashgan ekanman, yarim soatcha kechgan muzokaradan so'ng blogger sahifasidagi videoyozuvni o'chirib tashladi. Provodnik yengil tin oldi va kupeni tark etdi. Ketar payti esa shunday deb ketdi:

– Bugun kupelaringni shunday sovitamanki, kechasi o'ranishga odyol so'raysizlar.

Biroz jim ketgan blogger kimgadir telefon qilib, Jizzax somsa buyurtma qilishga tushdi.

– Ha, to'rtta somsa, ikkita kola. Vokzalga opchiqib tur, pulini klikdan tashlab yuboraman, – shu payt menga qaradi-da, – sizlarga ham aytaymi? – dedi. – Oshna, oltita somsa, uchta kola bo'ldi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, poyezd Jizzax vokzalida to'xtadi. Grafik bo'yicha bu yerda ko'p vaqt qolinmasligini bilsak ham Akbar aka bilan pastga tushdik. Vagondan uzoq ketmay gaplashib tursak, o'sha provodnik chiqib keldi-da, baland ovozda:

– Tez yordam! – deb baqirib qoldi. – Tezroq keling, bir yo'lovchining qon bosimi ko'tarilib ketibdi!

Navbatchi hamshira yugurgancha vagonga chiqib ketdi. Hamma “tinchlik bo'lsin-da, ishqilib”, deb turibdi. Oradan besh daqiqalar o'tib vagon zinasidan tushgan hamshira faqat bittagina jumla aytdi va indamay kelgan joyiga qaytib ketdi:

– Bir yuz-u oltimish...

Hushtak chalindi, hamma poyezdga chiqdi va yana yurishda davom etyapmiz. To'rtinchi qo'lida somsa va kola ko'tarib, tirjaygancha kupega kirib keldi-da, bizning buyurtmani berib, chiqib ketdi.

– Nima bo'lganini bildingizmi? – Akbar aka meni sekin turtyapti.

– Yo'q.

Aka u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydi-da:

– Blogerning buyurtmasi poyezd to'xtashiga ulgurib kelolmadi. So'ng konduktorni chaqirib, “boya senga yordam berdim, endi sening galing. Poyezdni to'xtatib turl!” dedi. Keyin blogerning narigi kupedagi bir sherigiga “Iltilimos, bemor bo'lib turing!” deb tashqariga chiqib ketdi. Hamshira shunchaki kelib ketdi, tushundingizmi? Shunchaki, to somsa kelgunicha vagondan tushmay turdi, – dedi.

– Qoyil, poyezdni to'xtatib tursa ham bo'larkan-da! – deyman hayratimni yashirolmay.

Qo'limni yuvgani ketayotib yo'lakda provodnikka duch keldim. U labini tishlagancha boshini sarak-sarak qildi-da:

– Aka, shuncha yildan beri ishlab, birinchi marta shunday ish qildim, – degancha g'alati yurish qilib yonimdan o'tib ketdi. Qaytayotib esa, yo'lakda to'rtinchiga duch keldim. U somsani paqqos tushirib olgan (*osh bo'lsin!*), qo'lida telefon, navbatdagi jonli efirini qilayotgan ekan.

– Assalomu alaykum, hurmatli Facebookdoshlar, mana, biz zamon talablariga to'la javob beradigan, dunyo standartlarini o'zida mujassam etgan poyezdda Termiz shahrida bo'lib o'tadigan marafonda ishtirok etish uchun ketyapmiz. Marafonimiz etaga 17:00 da boshlanadi...

Nimagadir ovozi eshitgim kelmadi-yu, kupe eshigini zichlab yopib, joyimga cho'zildim. Xona ancha sovib qolgan, mazza qilib uxlab ketsa bo'ladi.

Sahar uyg'onib qarasam, Mariya kupe derazasidan atrofni tomosha qilgancha xayol surib ketyapti. Qolganlar hali uyquda.

– Xayrli tong! Yaxshi dam oldingizmi, Mariya? – dedim sekin.

– Rahmat, yaxshi. O'zingiz-chi? Kecha nimaga kelganimni so'ragan edingiz-a? – u javob ham kutmay davom etdi: – Ikkiti o'g'lim bor, birining ismi Taxirjan (*u xuddi shunday talaffuz qildi*), otasi Termizda yashaydi. Hammasini tushungandirsiz? Har yili kelib, birga qaytishga ko'ndirolmay qaytib ketaman. Bu oxirgi kelishim. Boshqa kelmayman.

– O'zingiz qolsangiz bo'lmaydimi? – dedim.

– Shu yerdami? Bolalarimning o'qishiga, yashashiga umuman sharoit yo'q-ku.

– Nimaga yo'q ekan, hamma sharoit bor.

Bu orada Akbar aka bilan blogger ham uyg'ondi. Ikkalasi ham til masalasida qiynaladi. Akbar aka o'zbekchada so'raydi:

– Mehmonning dardi nima ekan, so'ratingizmi?

– Petrda Tohirjon degan jiyanimiz bor ekan, otasi Termizda emish, o'shani izlab kelyapti...

– Iya?

Men Termizga yetmay uchta bekat oldinda tushib qoldim. Akbar akaning keyinchalik aytishicha, Mariyani saloni tizza bo'yi chang bo'lib yotgan “Neksiya”da Tohirjonning otasi kutib olibdi...

Islomjon QO'CHQOROV

Erkak er sifatida – oilaning ustuni, rahbari, mas’uli. Oilaning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish erning zimmasida. Buni hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin amalga kelganda bu holat go’yo unut bo’ladi. So’nggi paytda poytaxtimizda bir urf quloq yozmoqda. Ayni mana shu odat meni qog’oz qoralashga majbur etdi.

Ko’p holatlarda erkakligimizdan g’ururlanamiz. Ko’cha-ko’ya, do’stlarimiz ichida erlik g’ururi haqida to’lib-toshib gapiramyiz. “Erkakchilik” masalasi deyarli har suhbatimizning mavzusiga aylangan. Ammo gap amalga kelganda, nimagadir hamma aytilgan so’zlarni, erkakchilik haqidagi mardliklarni unutib qo’yamiz. Eng qizig’i, hammasi hali oila qurmasimizdanoq boshlanadi. Ba’zilar badavlat xonadonga kuyov bo’lishni orzu qiladi. Shu yo’l bilan to’kin hayot kechirishni o’ylaydi. Bu mantiqsiz orzuning o’zi bizni tekin hayotga intilishga o’rgatadi, natijada er-xotin o’rtasidagi munosabatlarga keskin putur yetadi. Aslida o’sha erkakchilik haqida bong urgan yigit o’ziga o’zi: “Men erkakman. Oilamni o’zim ta’minlashim kerak. Astoydil ixlos bilan mehnat qilsam, inshoolloh, aslo yo’qchilik ko’rmayman”, deyishi kerak emasmi?!

Juda ko’pimiz kelinning sepiga ko’z tikamay. (Toshkentda sepi juda katta qilishlari hech kimga sir emas. Bu ish shu qadar keng sur’atda avj olganki, qiz ko’rgan inson umri davomida mebel uchun tirikchilik qilishi lozim bo’lib qolgan. Tasavvur qiling, qiz juda kambag’al bo’lsa, uyidagilari mebel olib bermasa,

MARD kuyovbola to’yga rozi bo’larmikan?! Butun e’tiborimizni “Kelinning uyidan qanday narsalar kelar ekan?” degan savol o’ziga qaratadi. O’zimizcha chamalaymiz. Alam qiladigan tomoni shundaki, bundan xijolat ham chekmaymiz. Kelin tomondagilar uyimizdagi bo’shatib qo’yilgan xonalarga jihozlar o’rnatib, gilamlar solib, pardalar osib, xullas, xonalarni qimmatbaho buyumlarga to’ldirib, barcha sharoitlarni yaratib ketishadi. Boshqa bir millat vakili mazkur holatni diqqat bilan kuzatsa, hayratdan yoqa ushlashi turgan gap.

Shu o’rinda bir voqea esimga tushdi. Toshkentlik qiz pokistonlik yigitga turmushga chiqqan edi. Kelin tomon mebel jihozlari berishini eshitgan pokistonlik kuyov hayratdan qotib qolibdi. Keyin ma’lum bo’lishicha, Pokistonda qizning jiddiy nuqsani bo’lsa, masalan, ruhiy kasal bo’lsa, yoniga mebel qo’shib uzatilar ekan. Bizda-chi? “Ha endi, u Pokistondagi odat-da. Bizda boshqacha”, deyishimiz mumkin. Lekin unday emas. Yurtimizning hamma yerida ham mebelni kelin tomon olib kelmaydi. Gap urf-odatda



ham emas, erkaklik g’ururida. Kelin tomondagilar uyimizni qimmatbaho buyumlarga to’ldirib tashlashiga g’ururimiz yo’l qo’yadi, orlanmaymiz ham. Uyimizni to’ldirishgani yetmagandek, ichki kiyimlarimizgacha (!) olib berishadi. O’z uyimizda ichkuyovdek yashaymiz. Kelinning ota-onasi qizini ko’z qorachig’idek asrab, oq yuvib, oq tarab katta qilgan. Uzatayotganida esa yuragining bir parchasini qo’shib uzatgan. Ularga “Shunday qizni tarbiyalab o’stirganingiz uchun rahmat. Men erkakman”, deyishning o’rniga kelin tomondan mol-dunyo kelishini umid qilsak, adolatdan bo’ladimi? Hali Hayitda yana sovg’a-salomli bo’lish umidimiz bor. Kelin bechoraning ota-onasi shunda ham qutulmaydi. Farzandli bo’lsak, bolamizga o’zimiz emas, qaynota va qaynonamiz beshik, karavot, kiyim-kechak olib beradi.

Qanday qilib bunga g’ururimiz yo’l qo’yadi? Yana qovurdoq degan narsa bor. U asli farzandlarimizning onasiga ko’zi yorigandan keyin quvvat bo’lishi uchun berishimiz kerak bo’lgan taom. Lekin shu qovurdoqni ham qaynonamiz olib keladi. Tavba! Agar shuncha ishlarga indamay, o’zimizcha erkak bo’lib turgan ekanmiz, endi ko’chaga chiqqanda, choyxonadagi oshnalarimiz oldida erkakchilik xususida og’iz ko’pirtirmaganimiz ma’qul.

Umid KOMILOV

KECHINMA



Nima uchun sen haqingda birov gap ochgudek bo’lsa, dunyo ko’zimga qorong’i ko’rinib, yuragim hapriqib ketarkin-a?! Nima uchun seni o’ylasam, sog’inch hissini sezmas ekanman?! Qaysi vaqtda seni farzandim sifatida yo’qotdim ekan-a?! Bolajonim, yonimdasan-u, lekin oramizda katta, osmono’par tog’lar hamda chuqur, qorong’i jarliklar bor.

O’ylay-o’ylay, tug’ilajak vaqtingdan tortib hozirgi 18 yoshingacha bo’lgan davrda kechirganlarimizni eslayman. Sen bir necha tug’ilolmay nobud bo’lgan farzandlarimdan keyin dunyoga kelding. O’sha damlarda meni faqat qo’rquv qamrab olgandi. “Bu farzandim ham nobud bo’lsa-ya, menga yana tan jarohati-yu qalb og’riqlari yetkazilsa-chi?!” degan fikr ketmay qolgandi. Nahotki, o’sha vaqtidagi qo’rquv senga berishim kerak bo’lgan onalik mehrimning bir qismini olib ketgan bo’lsa?!

Hayotimizdagi yetishmovchiliklar, otang bilan o’rtamizdagi gina-kudurat va adovatlarning ko’pligi sababli men o’ta zaif bo’lib qolganimdanmi, bilmayman, sen ham biroz nimjon bo’lib tug’ilding. Tez-tez och qolaverganimdan, hatto kimdir tamaddi qilishga ulgurmagan bo’lsa, go’yo hech qachon taom yemagan kishidek unga achinib, biror nimani tortiq qilgim kelaveradi.

Ayol kishi uchun och qolish – bu nafaqat nafsini tiyish va sabr-matonatni o’rgatuvchi omil, balki kuchsizlanishi, tushkunlikka tushishi, uning aql-farosatiga ziyon yetishi, miya ish faoliyatining zaiflashishi, tez qarib ketishi, sog’lig’iga putur yetishi, eng qo’rqinchlisi, ushbu hayotdan ko’z yumishga xohish paydo bo’lishiga ham sababdir. Ehtimol, o’sha damda senga bo’lgan mehrimning yana bir qismini qo’ldan boy berdimmi?

Ochlik men uchun eng qo’rqinchli narsa edi. Shu sababli sen kichikligingga qaramay, barvaqt ishga tushib ketdim. Mening farzandim ochlik nima ekanini bilmasin, deya hamma narsani muhayyo qildim. Aslida esa hayotning achchiq-chuchugini birga baham ko’rib, tirikchilikka emas, vaqtimning eng ko’p qismini sening tarbiyanga, senga mehr ulashishga

sarflashim kerak ekan. Axir erkak kishi qiyinchiliklarni ko’ribgina chin o’g’lon, haqiqiy erkak, oila, Vatan himoyachisi bo’lishini men qayoqdan ham bilar edim...

O’sha damlardagi ochlikni senga ravo ko’rmaganimdanmi, onalik mehr-muhabbati ko’zimni ko’r, qulog’imni kar qilib qo’ydimi, bilmadim, xullas, har narsani sen uchun muhayyo qilib, tarbiyanga ham putur yetkazdim. Bir kitobda donishmandlarning pand-nasihatini o’qiganimda, yosh bolalarga goh-gohida quruq nonning o’zini ham yedirib turish kerak, shunda bebosh bo’lmaydi, sabrli bo’ladi, pul qayoqdan kelib, qayoqqa ketadi, shu haqda o’ylaydigan mas’uliyatli inson bo’ladi, deb yozilgan edi.

Afsus... otang bilan birga bo’lgan hayotimiz uzoqqa bormadi. Ko’pgina janjallarning guvohi bo’lding. Qachon qarasa, doim kayfiyati yo’q, rangi sarg’ayib ketgan, yuzida tabassumi umuman ko’rinmaydigan, bola tarbiyasi bilan shug’ullanish, bolani o’ynatish, hayotning go’zalliklari, mo’jizalarini tanishtirishga ojiz onaning farzandi eding. Ming afsuski, vaqtini, tarbiyangni qo’ldan boy berdim.

Ha, sen katta bo’lguningga qadar vaqtimning asosiy qismi pul topishga ketdi. Ya’ni senga berishim kerak bo’lgan mehrim, senga ajratishim kerak bo’lgan vaqtim tirikchilikka sarflandi. Ishdan charchab kelganimda ko’zimga faqat yostig’im ko’rinadigan damlarda sen yonimga kelib:

“Onajon, bugun unday bo’ldi, bugun bunday bo’ldi”, deya birin-ketin kun bo’yi seni ta’sirlantirgan voqealarni gapirayotganingda, mening xayolimdan faqatgina “Bir zum tinch tursa, menga yopishavermasa!” degan o’y o’tardi. Shuning uchun gaplaringni qiziqishsiz tinglardim. Endi esa bu ishimdan afsuslanyapman. Qaniydi, o’sha damlarni qaytarishning iloji bo’lsa edi. Hammasi boshqacha bo’lardi. Gaplaringga quloq tutar, sen bilan tun-u kunni o’tkazar, birgalashib o’yinchoq o’ynab, sho’xliklar qilib, darslaringni birga qilib, har qadamda seni qo’llab-quvvatlab, bajargan ishlaring uchun, olgan “besh”laring uchun seni maqtab, bag’rimga bosib, dardlashib senga chin onalik mehrimni bergan bo’lar edim.

Qani edi, o’shanda senga men sening haqiqiy suyanchig’ing, sen esa mening suyanchig’im ekaningni takror-takror aytib, bag’rimga mahkam bosganimda. Haqiqiy, chinakam o’g’lon, mehribon farzandim, mas’uliyatli shaxs bo’larding. Qancha vaqtini, imkoniyatlarni qo’ldan boy berdim... Endi butunlay begona inson kabisan. Shuncha yelib-yugurib, tirikchilik ortidan quvib, seni “yovuz”larga boy berganimni bilmay ham qoldim. Seni ular haqiqiy bangi qilib qo’yishdi. Har kim sening ustingdan arz qilib kelganida yer yorilsa-yu, kirib ketsam, dedim. Bu kunlarning oxiri bormikan, deb azoblandim.

Qancha yillar o’tdi orada. Bu gaplarni qayta-qayta o’qib, menga shunday fikr keldi: “Xatolarimni yozib, o’qib chiqqapman-ku, bu yozganlarim menga tayyor ochiq yo’l bo’lib ko’rinyapti”. Darrov qilgan xatolarimni to’g’rilashga kirishdim. Seni borlig’im bilan sevishtirishga intildim, mening hayotimda bo’lganingga shukur qilib, xatolarim uchun tavba qila boshladim. Sen bilan gaplashib o’tirib, sen uchun shirin taomlar tayyorlab, vaqtimning ko’p qismini senga bag’ishlab, dilim vayron bo’lsa ham, tabassum ulashib, bag’rimga tez-tez bosa boshladim. Dardlaringga quloq tutib, iching to’la hasrat ekanini bilib oldim. O’zimga aytdim: “Hammasi yaxshi bo’ladi!” Asosiysi, xatomni tushungandim.

Bir kuni menga gap ochib qolding: “Onajon, qiynalib ketdim, sizni ham qiynab tashladim. Meni kasalxonaga olib boring”. Sevinchim ichimga sig’mas edi. Mening farzandim bu “balo”dan qutulmoqchi, o’zi istayapti. Mehribon Yaratuvchiga takror-takror hamd aytaman...

...Bugun uyimizda to’y! Men o’g’il uylantiryapman. Xursandchiligimning cheki yo’q. Farzandim men orzu qilgan to’g’ri yo’lda va endi uning o’ziga mos jufti haloli bor. Demak, men yaxshi onaman! Jigargo’shamni, ko’zimning nurini o’sha “yovuzlar”ning changalidan qutqarib qolish qo’limdan keldi. Nahot, hammasi ortda qoldi?! Nahot, qutuldiki?! Yana shukronalar keltiraman, hamd aytaman...

Madina JO’RAYEVA

INSON QADRI ULUG‘LANGAN YURT

Davlatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o‘quv sport-texnika klubida “Yangi O‘zbekiston – inson qadri va manfaatlari ulug‘langan yurt!” mavzusida “Uch avlod uchrashuvi” o‘tkazildi.

Tashkilot xodimlari, mehnat faxriylari va tashkilotning o‘quv kurslarida ta‘lim olayotgan fuqarolar, sportchilar hamda mahalla yoshlari ishtirokidagi uchrashuv ularning yodida iliq taassurotlar bilan qoladigan bo‘ldi.

Tadbirida so‘zga chiqqan keksa avlod vakillari o‘z hayot va mehnat faoliyatlarida to‘plagan boy tajribalari, yoshlik davridagi o‘ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar va hozirda ularga ko‘rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida so‘zlab, yoshlarni sabrli, mehnatsevar va ona Vatanga sadoqatli bo‘lishga chorladilar. Mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligini asrash har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini ta‘kidladilar.

O‘z navbatida, tadbir doirasida bir qator yoshlar “Vatanparvar” tashkiloti a‘zolariga qabul qilinib, ularga tantanali ravishda a‘zolik guvohnomalari topshirildi. Endilikda ular



tashkilotning imkoniyat va imtiyozlaridan to‘la foydalanish huquqiga ega bo‘ladilar.

So‘ngra mehmonlar uchun Romitan tumani o‘quv sport-texnika klubida ekskursiya uyushtirildi. Binoning asosiy qismidagi haydovchilik kasbini o‘rganishga mo‘ljallangan, innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan sinfxonalar hamda avtosport, pnevmatik quroldan o‘q otish va biatlon sport turlari seksiyalari namoyish etildi. Hozirda ushbu seksiyalarda 60 dan ortiq yosh professional sportchi shug‘ullanmoqda.

Binoning Ma‘naviyat va ma‘rifat xonasida “Vatanparvar” tashkilotining mehnat faxriylari yoshlarga tashkilotning uzoq yillik tarixi, maqsad va vazifalari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berdi. Tadbir davomida tashkilotning avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kursi tinglovchilari bino hovlisida joylashgan o‘quv-amaliyot avtodromida o‘z bilimlari va mahoratlarini namoyish etdi.

Yakunda Romitan tumani o‘quv sport-texnika klubining o‘q otish tirida faxriylar va yosh avlod vakillari ishtirokida pnevmatik quroldan o‘q otish bo‘yicha musobaqa uyushtirildi. G‘oliblar tashkilotning diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



XOTIRA

JASORAT UNUTILMAYDI

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Samarqand viloyati kengashi raisi Bekzod Rahimov boshchiligidagi tashkilot xodimlari va Qurolli Kuchlar faxriylari Vatan oldidagi burchini ado etish chog‘ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning bugungi tinch va osoyishta hayoti yo‘lida halok bo‘lgan Ismatullo Xo‘jayevning oilasi holidan xabar oldilar.

Marhum harbiy xizmatchining oila a‘zolari yo‘glovchilarga Ismatullo Xo‘jayevning bolaligi va hayot yo‘li to‘g‘risida gapirib berdi. Uning fotosuratlarini tomosha qilish asnosida yurt tinchligi yo‘lida xizmat qilgan o‘g‘lon bilan bog‘liq qiziqarli xotiralar yodga olindi.

Bugungi kunda Nurobod tumanining Oqsoy qishlog‘iga boradigan katta

ko‘chaga Ismatullo Xo‘jayev nomi berilgan. 13-umumta‘lim maktabida uning jasorati haqida hikoya qiluvchi xotira burchagi tashkil etilgan. Tashrif buyuruvchilar Nurobodning mard va jasur o‘g‘loni o‘qigan ushbu maktabda ham bo‘lib, u yerda o‘rnatilgan byust qarshisida uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Katta leytenant Ismatullo Xo‘jayev 2000-yil 16-sentabrda Surxondaryo



viloyatida mustaqilligimiz va tinchligimizni asrash yo‘lida yuritimizga suqilib kirgan buzg‘unchi kuchlarga qarshi kurashda jasorat namunasini ko‘rsatib, halok bo‘lgan.

Vatanni asrash yo‘lida jonini fido qilgan vatandoshlarimiz xalqimiz xotirasida abadiy yashaydi. Ularning hayot yo‘li yoshlarimiz uchun doimo o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.



KELAJAK UCHUN POYDEVOR

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Milliy gvardiya Toshkent shahri qo'riqlash boshqarmasi hamkorligida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Ma'naviy yuksalish – yorqin kelajak asosi" mavzusida tadbir tashkil etildi.



To'rtta qismdan iborat tadbir "Uch avlod uchrashuvi" bilan boshlandi. Unda Harbiy prokuratura va Qo'riqlash bosh boshqarmasi faxriylarining o'z hayotiy tajribalari asosida so'zlab bergan xotiralari qatnashchilar, ayniqsa yoshlar qalbidagi vatanparvarlik, halollik, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini to'qintirib yuborganligi ularning yuz-ko'zlarida aks etdi.

"Ma'naviy salohiyatni oshirishda kitobxonlikning

o'rni" mavzusidagi tadbirda kitobxonlikni keng targ'ib etish, mutolaa madaniyatini oshirish, aholining, ayniqsa yoshlar hamda xodimlarning kitobga muhabbatini yanada yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va Toshkent shahri qo'riqlash boshqarmasi hamkorligida maxsus tayyorlangan "Kitob – yuksalish asosi" nomli videorolik namoyish etildi.

Tadbirlar yuqori natijalarga erishgan xodimlar va ularning ota-onalarini taqdirlash marosimi, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar va she'rxonlikka ulanib ketdi.

Kitob yarmarkasida adabiyot, huquq, siyosat kabi turli sohalaridagi nashrlar va boshqa adabiyotlar tashrif buyurganlar e'tiboriga havola etildi. Harbiy xizmatchilar, xodimlar hamda yoshlar o'zlari izlagan va yaqinlari qiziqqan kitoblarni arzon narxlarida xarid qildilar. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalaridan turli janrdagi asarlar shular jumlasidan. Bu bilan ishtirokchilar o'zlari hamda yaqinlarining



ma'naviy salohiyatini yanada yuksaltirish yo'lida muhim zamin hozirladilar.

Yakunda murojaat bilan kelgan fuqarolar va qo'riqlash xizmati xodimlari tinglanib, ularga qonunchilik doirasida huquqiy tushuntirishlar berildi. Muxtasar aytganda, bu kabi tadbirlar yoshlarimiz ma'naviyatini yanada boyitishga, kecha, bugun va ertamiz mushtarakligini ta'minlashga, "Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor" degan hayotiy haqiqatning mohiyati va ahamiyatini yana bir karra ich-ichimizdan his etishimizga xizmat qiladi.

Adliya polkovnigi Sherzod HAYITOV,
 O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

✓ HUQUQIY TARG'IBOT

KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGA KURASHAMIZ

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida "Korrupsiya illatiga qarshi birga kurashamiz" g'oyasi asosida targ'ibot-tashviqot tadbirlari olib borilmoqda.



Mazkur yo'nalishda navbatdagi tadbir Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda o'tkazildi.

Unda ishtirok etgan Toshkent harbiy prokurori yordamchisi Sh. Zoirov korrupsiyaning salbiy oqibatlari, bugungi kunda davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar haqida tushunchalar berdi hamda mamlakat istiqboli va yurt ravnaqiga g'ov bo'luvchi korrupsiya illatiga barham berish masalalariga to'xtalib o'tdi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar tomonidan berilgan savollarga javoblar qaytarilib, xizmatda yoki hayotda bu kabi holatlarga duch kelgan taqdirda tegishli idora va vakolatli organlarga murojaat qilish bilan munosabat bildirish lozimligi tushuntirildi.

Adliya kapitani Otabek G'AFUROV,
 Toshkent harbiy prokuraturasi tergovchisi

✓ SAYYOR QABUL

Xalq bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot, odamlarning dard-u tashvishlari bilan yashash va ularni rozi qilish bugun har birimizning oldimizda turgan ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada harbiy prokuratura organlari tomonidan ham amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

XALQ BILAN MULOQOT



Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan ommaviy sayyor qabul bu boradagi tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Unda 350 nafarga yaqin harbiy xizmatchi, ularning oila a'zolari va fuqarolar qatnashdi.

Qabulda Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori adliya polkovnigi B. Kudratxodjayev fuqarolar murojaatlarini tinglab, savollariga javob berdi.

Muloqotlarda 118 ta murojaat kelib tushdi. Shundan 25 tasi joyida hal etildi, 48 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi, o'rganish va muddat talab etiladigan 45 ta murojaat nazoratga olingan holda, mutasaddi tashkilotlarga yuborildi.

Adliya mayori Shuhrat HOJIYEV,
 Guliston harbiy prokurorining katta yordamchisi

LEYSHMANIOZ



Leyshmaniozlar leyshmaniyalar tufayli kelib chiqadigan va issiq iqlimli mamlakatlarda uchraydigan yuqumli parazitlar, tabiiy o'choqli, zooantroponoz transmissiv kasallikdir.

Markaziy Osiyo va Kavkaz orti davlatlarida ikkita asosiy turi: visseral leyshmanioz (*kala – azar*) va teri leyshmaniozi (*yomon jarohat, pendin yarasi, pashshaxo'rda, Borovskiy kasalligi, Afg'on yarasi, Ashxabadka*) ko'rinishida uchraydi. Leyshmaniozlar avvalo hayvonlar kasalligidir. Endemik hududlarda yovvoyi va daydi hayvonlar leyshmaniyalarni tashib yuruvchilar hisoblanadi.

Visseral leyshmanioz qo'zg'atuvchisi leyshmaniya donovani deb ataladi va itsimonlar turkumiga kiruvchi hayvonlar va odam organizmida yashaydi. Odam visseral leyshmaniozga juda moyil bo'lib, ko'proq bolalar kasallanadi. Infeksiyani flebotomus turkumiga kiruvchi iskabtoparlar tashib yuradi. Iskabtoparlar asosan kechasi chaqadi, chunki ular quyoshning tik nuridan qo'rqadi va kunduz kunlari salqin va zax joylarda jonini saqlaydi. Ular bemor odam yoki hayvon qonini so'rganida infeksiyani o'ziga yuqtirib oladi, shundan so'ng leyshmaniyalar iskabtopar tanasida rivojlanib, uning halqumiga qarab yuradi va shu yerdan iskabtopar chaqqan joyga tushadi. Leyshmaniyalar iskabtopar chaqqan joydan o'tib, qon oqimi bilan taloq, jigar, suyak ko'migi, limfa tugunlariga tushadi va ularni yemiradi. Iskabtopar chaqqandan so'ng kasallik belgilari paydo bo'lgunga qadar bo'lgan vaqt 2 haftadan 20 oygacha va bundan ham ko'proq davom etishi mumkin. Bemorning tinka-madori qurib, tana harorati ko'tarila boshlaydi, teri qoplamlari va ko'rinib turuvchi shilliq pardalar oqara boshlaydi. Tana harorati kecha-kunduzi ko'tarilib-tushib turadi, qaltirash va terlash kuzatiladi. Kasallikning birinchi kunlaridan boshlab taloq kattalashadi, og'ir holatlarda uning yorilishi

kuzatiladi. Vaqt o'tishi bilan taloq bilan bir qatorda jigar va periferik limfa tugunlari kattalashadi. Oradan 2-3 oy o'tib, bemorda kamqonlik boshlanadi. Vaqtida maxsus davo choralarini ko'rilmasa, visseral leyshmanioz surunkali turiga o'tadi. Bemorning terisi kulrang tusga kirib, shishlar paydo bo'ladi, ichi suradi, ko'pincha ichi qon aralash keladi, tana vazni kamayib, qorni shishadi. Noto'g'ri davolanganda xastalik 2 yilgacha davom etishi mumkin. Visseral leyshmaniozda ko'p uchraydigan asoratlari: zotiljam, quloq, sut bezlari va og'iz bo'shlig'ida yallig'lanishlar kuzatiladi. Tana immun tizimining susayishi va ikkilamchi infeksiyalar qo'shilishi natijasida xastalik o'limga olib kelishi mumkin.

Leyshmaniozning yana bir turi teri leyshmaniozi bo'lib, uning qo'zg'atuvchisi leyshmaniya tropika deb ataladi. Teri leyshmaniozining ikki turi, ya'ni qishloqqa xos (*yarali*) va shaharga xos (*quruq*) turi farqlanadi. Leyshmaniozning qishloqqa xos turida kasallik manbayi yovvoyi kemiruvchilar (*qum sichqonlar, yumronqoziq va boshq.*) bo'lib, xastalik ko'pincha yoz va kuz oylarida uchraydi. Shaharga xos turida asosiy infeksiya manbayi odam, it va ba'zida uy kemiruvchilari ham bo'lishi mumkin. Xastalanish aholi o'rtasida yil davomida kuzatilib, kattalar va bolalar orasida bir xilda uchraydi. Leyshmanioz bilan og'rib o'tgan odamda o'sha turdagi qo'zg'atuvchiga nisbatan turg'un immunitet hosil bo'ladi.

Infeksiyani iskabtoparlar tarqatadi, ular chaqqan joyda xastalikning shaharga xos turida oradan 6-7 oy o'tib, qishloqqa xos turida esa 15-16 kundan keyin yara paydo bo'ladi. Iskabtoparlar ko'pincha tananing ochiq joylarini (*yuz, bo'yin, qo'l va oyoq sohasi*) chaqadi va yaralarning soni iskabtoparning necha marotaba chaqqaniga bog'liq bo'ladi. Yaraning o'lchami asta-sekin kattalashib borib, 4-6 sm.gacha yetadi va davolash yordamida bir necha oydan keyin tuzala boshlaydi. Davo qilinmagan taqdirda yara bir yildan keyin tuzaladi va o'zidan keyin terida chandiqlik qoldiradi. Shuning uchun kasallik "yillik yara" deb ham ataladi.


Leyshmanioz kasalligiga qarshi kurashda birinchi galdagi vazifa – infeksiya manbayi bo'lgan chiyabo'rilar, daydi itlar va kemiruvchilarni yo'qotish, endemik o'choqlarda esa uy itlari ustidan veterinariya nazoratni kuchaytirish zarur. Visseral leyshmanioz bilan og'rib bemorlarni vaqtida aniqlash, davolash, bemor bilan birga endemik hududda bo'lganlarni o'z vaqtida tibbiy tekshiruvdan o'tkazish zarur. Aholini iskabtoparlar chaqishidan saqlash, ular ko'payishi mumkin bo'lgan joylarni yo'qotish zarur.

Dala sharoitida yoki ochiq havoda uxlash paytida eshik va derazaga to'r parda tutish, pashshaxonalardan foydalanish, teriga iskabtoparlarni hurkituvchi vositalar surtish ularning chaqishidan saqlaydi. Endemik hududda joylashgan aholini va unday hududlarga xizmat safariga boruvchilarni leyshmaniozga qarshi emlash yaxshi samara beradi.

Aholining tibbiy bilim-saviyasini oshirish, profilaktik chora-tadbirlarni rejali ravishda olib borish,

sanitariya-targ'ibot ishlarini o'tkazish bilan leyshmanioz kasalligining paydo bo'lishi va tarqalishining oldi olinadi.

Tibbiy xizmat mayori N. OMONOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya
nazorati markazi bo'linma boshlig'i.
B. AHMEDOV,
vrach-mutaxassis



Mamlakatni sportchalik dunyoga tanitadigan soha bo'lsa kerak. Ammo buning uchun sportchilardan metin iroda, mustahkam sabr va bukilmaz matonat talab etiladi. Qolaversa, ularni yoshligidan mashg'ulotlarda to'g'ri yo'nalish olib, o'sha kasbni sevadigan qilib tarbiyalashda murabbiylarning o'zni beqiyos. Har kim ham sport bilan shug'ullanishni boshlashi mumkin. Biroq boshlagan ishini oxirigacha yetkazib, mashaqqatlarga bardoshli bo'lib, pirovardida chempion bo'lish barchaga ham nasib etavermaydi.



Bunday yuksak muvaffaqiyatlar ortida murabbiylarning hissasi katta. Bugungi suhbatdoshimiz ham o'sib kelayotgan yosh avlodning bo'sh vaqti besamar ketmasligi yo'lida kamarbasta bo'lib mehnat qilib kelayotgan yosh murabbiylardan biri Kozimjon Haydarov. U O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashida pnevmatik qurollardan o'q otish sport turi bo'yicha murabbiy.

BOLALIK

Bolaligimdan futbolga muhabbatim bo'lakcha edi. 10 yoshimdan boshlab futbol to'garaklariga qatnadim. Bolalar, o'smirlar va kattalar o'rtasidagi viloyat terma jamoasi a'zosi bo'lganman. Bu orada ko'plab yuqori natijalarni qayd etdik. Futbol bo'yicha "sport ustasi" ham bo'ldim. Viloyatning birinchi ligasida to'p surdik. Mening o'y va fikrim faqat sport bo'lgan. Ko'pgina orzularim bo'lgan... afsuski, aksariyat sun'iy to'siqlar sabab ularga erisha olmadim. Qalbimda sportga bo'lgan alanga cho'g'ligicha qolib ketdi...

O'QITUVCHILIK

Professional sportdagi faoliyatimni tugatganimda murabbiylik ilmini ham egallagan edim. Shu tajriba sabab maktabda o'quvchilarning sportga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otishni boshladim. Ishonasizmi, chekka qishloq maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlar orasida iqtidorlilari juda ko'p. Bunga o'z faoliyatimda guvoh bo'ldim. Ular uchun moddiy manfaat ikkinchi o'rinda. Birinchi o'rinda – natija. Biror topshiriq aytilsa, jon-jahdi bilan bajarishadi. Jismonan baquvvat, soddalik va samimiylik – ularning eng oliy xislati. Bunday yoshlar bilan to'g'ri yo'nalishda ishlar olib borilsa, albatta har qanday natijaga erishish mumkin. Agar statistikaga ahamiyat berilsa, yurtimiz yoki jahon sportida yuqori natijalarni qayd etayotgan sportchilarning aksari qiyналgan oilalarning farzandlari ekanligiga guvoh

BIR BAYROQ OSTIDA

bo'lamiz. Ularga ozgina e'tibor bo'lsa bas, sharoit ham unchalik muhim emas aslida.

MURABBIYLIK

Maktabda ishlab yurgan kezlirim qo'shni akamiz menga ish taklif qilib qoldi: "Kozimjon, sportchi bo'lganingizni bilamiz, murabbiylikdan ham xabaringiz bor. "Vatanparvar" tashkilotida o'q otish sportiga murabbiy kerak. Agar biz bilan bir jamoada ishlasangiz, xursand bo'lar edik", deganida meni sal hayajon bosdi. Negaki, o'q otish sport turi menga ancha begona soha edi. Ammo u yerdagi ustozlarning sa'y-harakatlari va o'zimning sportga bo'lgan mehrim hayajonimdan ustun keldi. Oldiniga pnevmatik qurollardan o'q otish sirlarini yaxshilab o'rganib oldim. O'ylaganimdan ko'ra osonroq va qiziqarliroq ekan. Eng asosiysi, o'q otish sport turida adolatsizlikka duch kelish qiyin ekan. Menga juda yoqqani ham aslida shu bo'ldi. 1996–2005-yillarda futboldagi faoliyatim davomida juda ko'plab nohaqliklarga duch kelganman. Bunday nohaqliklar oxir-oqibat men kabi ko'plab futbolga mehr qo'yganlarni katta sportni tashlashga majbur qilgan. O'q otishda bunday holatlarga duch kelish amrimahol. Bilagingda kuching bor, diqqatingni jamlay olasan va aql bilan nishonni mo'ljalga olasan. Nishonga tekkan o'qlarni hech kim inkor eta olmaydi...

SHOGIRDLAR

Sport turining yomoni bo'lmaydi, faqat uni sevish kerak. O'q otishga shu darajada kirishib ketdimki, endi yoshlarga bemalol o'rgata boshlagandim. Ular bilan tuman, viloyat, respublika birinchiliklarini qo'lga kiritganimda o'zgacha tuyg'ular qurshovida bo'ldim. Bunday hissiyotli lahzalarni so'z bilan ta'riflab berolmayman. Shogirdlarim hatto uyimga ham kelardi. Ular ham sportni avval men futbolga umrimni bag'ishlaganim kabi sevadi. Shunday kunlarning birida

rassomlikka qiziqadigan o'g'lim ham o'q otish sportida o'zini sinab ko'rgisi kelayotganini aytib qoldi. Kimki sportga qiziqsa, unga eshiklarimiz doimo ochiq, dedim uning qarorini qo'llab-quvvatlagan holda. Aslida rasm chizish uchun kerak bo'ladigan sabr, matonat va diqqatni jamlashdek xarakter ayni o'q otishda ham kerak. O'g'lim Muhammadyusufda bunday ko'nikma shakllangani uchun u bu sohani tez o'zlashtira boshladi. Qolgan shogirdlarim singari u ham respublika chempionligini qo'lga kiritdi. Hozirda Respublika o'q otish federatsiyasi terma jamoasi a'zosi.

"BIR BAYROQ OSTIDA"

Yonimga shogird bo'lib kelayotgan yoshlarga ta'lim-tarbiya berib kelaman. Ulardagi "men", ya'ni shaxsiy natijaga intilish juda kuchli. Aslida ularning bunday harakatlari yosh bilan bog'liq albatta. Men shogirdlarimga "Bir bayroq ostida" shiorini tatbiq etaman. Hech qachon "men" emas, aksincha "biz" deyish kerakligini uqtirib kelaman. Viloyat birinchiligi uchun tuman, respublika birinchiligi uchun viloyat, jahon birinchiligi uchun esa O'zbekiston sha'ni himoya qilinadi. Shunday ekan, shogirdlarimga reja va maqsadni yuqori olishni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Yurt qadri va qimmatini uchun kurashishdan ortiq baxt bo'lsa kerak. Vatanimiz bayrog'ining jahon arenalarida baland ko'tarilishi uchun birlashib harakat qilishimiz zarur.

MUTOLAA

Asosan detektiv asarlar yoqadi. Muammo va uning yechimiga bag'ishlangan har qanday asarni jon-dilim bilan o'qiyman. Nafaqat o'qiyman, o'zim o'sha asarning ichida yashayman. O'qiyotgan asarim hayotiy bo'lsa bas. Haqiqatdan yiroq har qanday voqea-hodisalarga asoslangan asarlar

menga begona. Reallikdan yiroqmi, uni o'qishdan ma'no yo'q, nazarimda. Mutolaa qilgan asarlarimdan o'zim uchun nimadir olishim kerak. Saviya va tafakkurni kengaytirishga xizmat qiladigan asarlarni shogirdlarimga ham tavsiya etaman. Kitob o'qimaydigan inson ma'nan qashshoq bo'lish bilan birga, so'z boyligi ham kamayib boradi. So'z boyligi kam inson, ayniqsa u murabbiy bo'lsa, shogirdlari bilan muloqotda, ularga motivatsiya berishda qiyinalishi tabiiy. Hozirgi kunda 25 dan ortiq yosh bilan ishlayapman. Ularning har biri o'zga olam. Umumiy tavsiyalar bir xil ta'sir qilmaydi. Shuning uchun har biri bilan alohida ishlayman. Xarakteridan kelib chiqqan holda, tavsiya va ko'nikmalar berishimga to'g'ri keladi. Buning uchun men albatta kitobdan olgan bilim va ko'nikmalarimga suyanaman.

YUTUQLAR

Murabbiyning yutuqlari shogirdlari ko'rsatgan natijalari bilan o'lchanadi. Pnevmatik qurollardan o'q otish sportiga kelganimga unchalik ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, qo'l ostimda mashg'ulotlar o'tkazgan yoshlarning ko'rsatgan natijalaridan xursandman. Men sabab bitta bo'lsa-da, yoshning hayotida tub burilish yasalsa, o'zimni baxtli his etaman. Bugungi kungacha murabbiylikimda shogirdlarimdan bir nafari Osiyo chempioni, 3 nafari O'zbekiston chempioni, 8 nafari esa sportda erishgan natijalari sabab yurtimizning turli hududlarida imtiyozli ravishda oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya yo'nalishida tahsil olib kelmoqda. To'g'ri, bir qaraganda bu yuqori natijadek ko'rinmas, ammo, boya aytganimdek, bitta bo'lsa ham, yoshning to'g'ri yo'nalishda o'z hayotini topishiga sababchi bo'layotganimning o'zi men uchun katta yutuq.

XULOSA

Sport inson uchun hech qachon ziyon keltirmaydi. Aksincha, tanning salomatligi, jismning baquvvatligi uchun foyda. Inson qaysi kasbda bo'lishidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya bilan oshno bo'lishi kerak. Kitob aqlning ozuqasi bo'lsa, jismoniy tarbiya – jismga quvvat. Bu ikkisi mujassamlantirilsa, komil inson bo'lib yetishish mumkin. Shuning uchun yoshlarga aytmoqchimanki, yaratilgan sharoitlardan unumli foydalangan holda, yoshlikni behuda ishlar bilan o'tkazmang. O'tib borayotgan vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Undan maqsadli foydalangan inson hech qachon yutqazmaydi.

«Vatanparvar» muxbiri
Sherzod SHARIPOV
yozib oldi.

TADBIRLAR SAMARADORLIGI OSHIRILMOQDA



"Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Jarqo'rg'on tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi Siz, aziz yurtdoshlarimizni mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami bilan samimiy tabriklaydi. Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!

Yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, intellektual salohiyatli hamda ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biridir. Bu o'ta muhim jarayonni tashkilotning Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Jarqo'rg'on tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi ham muvaffaqiyat bilan uddalab kelmoqda.



Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirlar shular sirasidandir.

Ayni paytda mazkur o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan tumandagi "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, ular har tomonlama moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanib, muntazam ravishda sport to'garaklariga jalb etilmoqda. Shu kunlarda mana shu ro'yxatga kiritilgan 44 nafar yosh haydovchilikning "BC" toifasiga o'qitilyapti.

– Sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, yosh avlodni ma'nan va jismonan baquvvat etib voyaga yetkazish borasidagi ishlarimiz sifatini yaxshilash maqsadida bir

qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Shuhrat Xo'jamqulov. – Shu munosabat bilan tashkil etilayotgan sport musobaqalari yoshlarimizni yanada ruhlantirmoqda. Bundan tashqari, yoshlar va aholi orasida harbiy-vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda klubda faoliyat olib borayotgan sport turlariga jalb etish borasida ham muayyan ishlar olib borilmoqda.

Ayni kunlarda klub qoshida uchta seksiya va bitta to'garak mavjud bo'lib, ularda 36 nafar iqtidorli yosh shug'ullanmoqda. O'z navbatida, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida turli musobaqalar o'tkazilyapti. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchidan, sportning texnik va amaliy turlariga yoshlarni imkon qadar ko'proq jalb etish bo'lsa, ikkinchidan, nufuzli musobaqalarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat. Shu bois musobaqalarda ishtirok etgan sportchilarimiz respublika bosqichida viloyatimiz sharafini munosib himoya

qilmoqda. Masalan, yozgi biatlon bo'yicha Chirchiq shahrida o'tkazilgan respublika musobaqasida ishtirok etgan sportchimiz Jo'rabek Boymurodov faxrli 1-o'rinni egallab, imtiyoz asosida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi bo'ldi.

Shu kunlarda tashkilotda haydovchilar tayyorlash ishlari ham muvaffaqiyat bilan bajarib kelinmoqda. Birgina joriy yilning o'tgan oylari mobaynida 400 nafardan ziyod "B", "BC", "C" va "E" toifali haydovchi tayyorlashga erishildi. Shuningdek, belgilangan rejaga muvofiq, hamkorlik memorandumiga asosan, hududdagi harbiy qismlarning birida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar va harbiy xizmatchilardan 45 nafari ixtiyoriy ravishda "BC" toifali haydovchilik kurslarida tahsil olmoqda. Eng muhimi, harbiy xizmatchilarga qulaylik yaratish maqsadida shu yerning o'zida sinfxonalar talab darajasida jihozlanib, o'quv mashg'ulotlari malakali mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda.



Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi yo'nalishida olib borilayotgan tizimli ishlar doirasida tibbiy ko'riklarning muntazam tashkil etilayotgani ularning salomatligini mustahkamlash va sog'lig'ini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois olis va yaqin garnizonlarda harbiy xizmat o'tayotgan yurt o'g'lonlari va oila vakillari uchun sifatli tibbiy xizmat yo'lga qo'yilgan bo'lib, doimiy ravishda soha mutaxassislari tomonidan ko'riklar o'tkazib kelinmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamda Nukus harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi kuch tuzilmalari harbiy qism va muassasalarining ayol harbiy xizmatchilarini

NUKUSDA TIBBIY KO'RIK

ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, kasalliklarni erta aniqlash va tibbiy maslahatlar berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi filialida bepul tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikka malakali onkolog, mammolog hamda ginekologlar jalb qilinib, ayol harbiy xizmatchilarda bachadon bo'ynini tekshirish va rak oldi holatini aniqlash mumkin bo'lgan kolposkopiya hamda mammografiya tekshiruvlari o'tkazildi.

Bachadon bo'yni saratoni kasalligi dunyo bo'yicha ayollarning salomatligiga jiddiy xavf tug'dirayotgan, ko'krak bezi saratonidan keyingi o'rinda turuvchi kasalliklardan biri hisoblanadi. Bachadon bo'yni saratoni abort va yoriqlar, surunkali yallig'lanish, gormonal ta'sir natijasidagi o'zgarishlar tufayli paydo bo'ladi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilgan ayollarda bu kasallik xavfi nisbatan kam uchraydi.

Tibbiy ko'rik davomida ayol harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javob oldi.



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



MUDOAAGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA



YOSHLAR KAMOLOTI YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi Sharof Rashidov tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarni ijtimoiy foydali va ommaviy vatanparvarlik ishlariga ko'proq jalb etish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlar ayniqsa mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida yana ham izchil tus olmoqda.

Xususan, klub jamoasi tashabbusi bilan tumandagi mahallalar, o'quv muassasalari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan tadbirlar ham ushbu muhim sanaga bag'ishlanmoqda. Tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman kengashi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda ko'plab yoshlar ham faol ishtirok etdi. Albatta, muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlar qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar kamolotida alohida o'ringa ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'STKda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda klub qoshidagi "Havo miltig'idan o'q otish", "Aviamodel" va "Karting" kabi sport seksiyalarida faoliyat yuritayotgan yoshlar turli sport musobaqalarida ishtirok etib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Kezi kelganda, ta'kidlab o'tish joizki, shu kunlarda tashkilotda malakali haydovchilar tayyorlash borasida ham ko'plab ishlar qilinmoqda. Ayni paytda bu yerda "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. O'z navbatida, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish maqsadida barcha zarur sharoitlarning mavjudligi ham xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Rahmon SHARIPOV,
"Vatanparvar" tashkiloti
Sharof Rashidov tumani
O'STK boshlig'i



Botir

BIRINCHI



Harbiy va jangovar kuy-qo'shiqlarning yaratilishi uzoq tarixga borib taqaladi. U jangovar harakatlarda, qo'shinlarni boshqarish, signal berish maqsadida qo'llangan. Harbiy musiqalardan qo'shinlarning harbiy mashq va tarbiya jarayonlari, tantanali parad, ko'rik va boshqa tadbirlarda foydalaniladi. Shu jihatdan milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar kayfiyatini oshirishda ahamiyati yuqori.

Toshkent harbiy okrugidagi harbiy qismlarning birida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidagi harbiy xizmatchilar o'rtasida tashkil etilgan "Eng yaxshi harbiy qo'shiq ijrochisi" tanlovining vazirlik miqyosidagi yakuniy bosqichi o'tkazildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat va turizm, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Fanlar akademiyasi Tarix instituti

va O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamkorligida o'tkazib kelinayotgan tanlovning yakuniy bosqichi o'zgacha shukuhda o'tdi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy-vatanparvarlik, ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy ruh va g'urur tuyg'ularini kuchaytirish, intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida o'tkazilgan tanlov har tomonlama shaffof va odilona bo'lib o'tdi.

Harbiy xizmatchilar o'z iste'dod va ijro mahoratlarini namoyish etgan holda Vatanimiz, qo'shinlar salohiyati, jangovar shaylikni madh etuvchi qo'shiqlari bilan ishtirok etdi.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandasi III darajali serjant Botir Hojiyev 94 ball bilan mutlaq g'oliblikka erishdi.

Ikkinchi o'rinni Qurolli Kuchlar akademiyasi harbiy orkestri konsertmeysteri kichik serjant Nozimjon Zafarov (90 ball), uchinchi o'rini MHO harbiy orkestri katta musiqachisi KBHX, oddiy askar Abrorjon Nazarov (88 ball) egalladi.

Tanlovda g'olib bo'lgan harbiy xizmatchilar diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»

BIR CHIMDIM

Barcha yaxshiliklar uyning ichkarisida, uning kaliti tavozedir. Barcha yomonliklar ham uy ichkarisida, uning kaliti esa takabburlikdir.

Yusuf Husayn ROZIY

QISQA SATRDA

Ernest Xeminguey har qanday insonni ta'sirlantiradigan, o'zi atigi olti so'zdan iborat hikoya yoza olishdan bahs boylashgan. Unga g'alaba olib kelgan hikoya:

"Bolalar poyafzali sotiladi. Kiyilmagan..."
 ("For sale: baby shoes, never used").

An'anaviy hikoyachilikning tugun, kulminatsiya va yechim kabi tarkiblaridan iborat bo'lgan eng qisqa hikoyalar tanlovida O'Genri g'olib bo'lgan.

"Chekayotgan haydovchi qancha yonilg'i qolganini ko'rish uchun benzobak tomon egildi. Marhumning yoshi yigirma uchda edi".

Frederik Braun eng qisqa qo'rqinchli hikoyani yozgan:

"Yerdagi oxirgi odam xonada o'tirardi. Birdan eshik taqillab qoldi..."

Barnabi Konradshening esa "Kasalxonada" nomli hikoyasi quyidagicha:

"Ayol mashinani o'qdek uchirib kelardi. Ishqilib, ulgursin-da.

Lekin jonlantirish xonasidan chiqib kelgan shifokorning yuziga qarab, u hammasini tushundi.

Ayol o'kirib yig'lab yubordi.

– Allerton xonim, – dedi shifokor, – xafa bo'lmang. U sizni judayam sevarkan. Jon berayotib: "Seni sevaman, Meri", dedi.

Ayol shifokorga qaradi va darhol yuzini burdi.

– Rahmat, – dedi sovuq ohangda Judit".

@Vatanparvargazetasi_bot
 "Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING
 ELEKTRON SHAKLI**



VATANPARVAR

MUASSIS



**O'ZBEKISTON
 RESPUBLIKASI
 MUDOFAA
 VAZIRLIGI**

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
 polkovnik Otabek Yuldashev
 polkovnik Alisher Boboxonov
 Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini

vaqtincha bajaruvchi:
 podpolkovnik To'lg'in Jumanazarov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
 buxgalteriya: 71 260-35-20
 yuridik bo'lim: 71 260-29-41
 faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5574

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 462 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
 t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
 www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya